

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

“UMUMIY TARIX” KAFEDRASI

5141600 - “Tarix” ta'lim yo'nalishi

NORBO'TAYEV ADHAMning

**“XIX ASRNING OXIRI VA XX ASRNING
BOSHLARIDA ROSSIYANING ICHKI VA TASHQI
SIYOSATI”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots.S.G'iyosov

Navoiy 2011

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYANING ICHKI VA TASHQI SIYOSATI.

REJA:

KIRISH

ASOSIY QISM

I-BOB. XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYANING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA SIYOSIY AHVOLI.

- 1.1.Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.
- 1.2.Chorizmning ichki siyosati. Ijtimoiy harakat.

II-BOB. XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYANING TASHQI SIYOSATIDA MAG`LUBIYAT SABABLARI VA ULARNING OQIBATLARI.

- 2.1.Rossiyaning tashqi siyosati.
- 2.2.Rossiyaning chekka o'lkalardagi siyosati.
- 2.3.Rus yapon urushi va uning oqibatlari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

“Biz turli mamlakatlar tarixi va iqtisodiyotining o'ziga xos taraqqiyotini katta diqqat e'tibor bilan o'rganamiz. Jahon amaliyoti va jahon tafakkurida to'plangan eng yaxshi tajribalarni o'zimizda qo'llashni or bilmaymiz, aksincha, bunday, intilishni har jihatdan rag'barlantiramiz.”

Islom Karimov

KIRISH

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug` maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganligini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to'g'ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab-quvvatlayotgani oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q.

O'sib kelayotgan avlod bugungi ezgulik yo'lidagi bunyodkorlik ishlarining davomchisi sanaladi. Milliy ma'naviyatimiz qirralarini kelajak avlodimiz shuurida mukammal shakllantirish va yuksaltirish uchun barchamiz mas'ulmiz.¹

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» mavzusidagi ma'ruzasida bizni e'tiborimizni tortadigan hamda chuqur mushohadaga undaydi: «Shu kunlarda barchamiz nihoyasiga yetib borayotgan 2010-yilni yakunlab, Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligi nishonlanadigan yangi 2011-yil ostonasida turibmiz.

Tariximizga kirib kelayotgan buyuk marra munosabati bilan o'tgan davr mobaynida hayotimiz sifati, mamlakatimiz qiyofasi qanday o'zgarib borayotgani, qanday yutuq va natijalarga erishganimiz, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo metish yo'lida qanday su'ratlarda rivojlanib borayotganimizni baholash ehtiyoji tig'ulmoqda. Qisqacha ayganda, biz oldimizga qo'ygan uzoq muddatli strategik maqsadlar, yani zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizni barqaroor o'sishini taminlash hayot sifatini yaxshilash va jahon

¹ I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008.

hamjamiyatiga munosib o'rin egallash borasidagi sa'y-harakatlarimizga bugungi kun nuqtai-nazaridan xolisona baho berishimiz tabiiydir.

Ma'lumki, O'zbekiston 1991-yil o'z mustaqilligini qo'lga kiritayotganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, mamuriy buyruqbozlik, reali-taqsimot tizimidan voz kechib «O'zbek modeli» deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oladi»¹

Biz ishlab chiqqan va bugungi kunda hayotga tadbiq etayotgan ushbu modelning ma'no-mazmuni davlat qurulishi va konstitutsiyaviy tuzumini tubdan tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini taminliash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni munofiq kuashtirib borishi, qonun ustuvorligini taminlash, kuchli ishtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma – bosqich va ischil olib borish tamoillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlarni amalga oshiradan iboratdir.

Biz islohotlarni inqilobiy usulda, yani «Shok terapiyasi» yo'li bilan amalga oshirishdan ongli ravishda vos kechib, tarixiy taraqqiyot yo'lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday og'ir oqibatlarga olib kelishimiz mumkun bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolishga mofaq bo'lganimizni bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinib turubdiki mustaqillikga erishganimizdan kiyin qisqa davr ichida sarhisob qilishga arzigulik ulkan yutuqlarga erishdik. Biz o'z davlat ramizlarimizga ega bo'ldik va O'zbekiston jahon hamjamiyatiga a'zo bo'ldi. Prizidentimiz I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoil asosida mustaqil davlatimizning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlab olib, amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar natijasida xalqimiz xalq xo'jaligining barcha sohalarida ulkan bunyodkorlikni amalga oshirmoqda.

¹ «Xalq so'zi» gazetasi 2010 yil 13-noyabr №220

Izchil yuqori o'sish suratlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yolidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, xalqaro valyuta jamg'armasi, jahon banki, osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

Haqiqatdan ham, qariyb yigirma yillik mustaqillik taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,3 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani etiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar aholining ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'payganligi, turmushdarajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobarga kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umir ko'rishi 75 yoshga yetganini mamnuniyat bilan ta'kidlasak arziydi, deb o'ylayman.

2008-2010 yillarda dunyoning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy o'sish suratlari keskin tushib ketgan, ishlab chiqarish pasaygan bir vaqtda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008 yilda 9 % ni, 2009 yilda 8,1 % ni tashkil etgani, 2011 yilda esa 8,3 % darajasida bo'lishi belgilab berayotgani ko'pgina xalqaro tuzulmalar, ekspert va muttaxislarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Dunyoda ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda davlatning tashqi qarzlari ko'payib borayotgani jiddiy xavotir tug'durayotgan bir paytda O'zbekistonning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 10 % dan oshmaydi, davlat byudjeti esa so'ngi besh yilda profisit bilan bajarilmoqda.

Albatta, mamlakatimiz qo'lga kiritayotgan bunday yutuqlar ro'yxatini yanada davom ettirish mumkun.

«O'zbekiston tashqi siyosatida Rossiya bilan hamkorlik alohida o'rin titadi. Mamlakatlarimiz o'rtasida 2004 yilda strategik sheriklik, 2005 yilda ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar imzolanib, o'zaro hamkorlikning oliy bosqichiga ko'tarish uchun xuquqiy asos yaratildi. Davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalar o'zaro ishonch va manfaatdorlik asoaida rivojlanmoqda. O'zbekiston va Rossiyaning siyosiy va iqtisodiy aloqalari juda keng. bu muayyan masala va muammolarga qarashlar o'xshash yoki yaqin natijasidir»¹

Mustaqillikka erishganidan so'ng O'zbekiston jahon jamiyatida munosib o'rin egalladi. Davlatimiz buyuk kelajakni taminlashga xizmat qiladigan jamiyat qurushning murakkab yo'lini bosib o'tmog'i lozim. Bu siyosiy mustaqillikni mustahkamlash, rivojlangan iqtisodiyot hamda zamonaviy talim tizimiga ega bo'lgan chinakam demokratik jamiyat qurish yo'lidir. Mazkur yo'lning muvaqqiyatijahon hamjamiyati bilan, o'zoro manfaatli amaliy va do'stona munosabatlar asosida yer kurrasidagi barcha xalqlar va davlatlar bilan hamkorlikga bog'liq.

Hozirgi dunyo murakkab va turfa xil. Unda turli madaniyatlar yonma-yon yashaydi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Butun dunyo bilan muvaffaqiyatli munosabatlarga kiritish, do'stlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun mavjud voqiylikning muamlarini chuqurlashtirish va bu bilimlardan umum manfaati yo'lida foydalanish lozim bo'ladi.

Insoniyat XX asrda ishtimoiy va iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda ulkan qadamlar tashladi. Asrimizning 20-yillarida boshlangan ilmiy texnikaviy inqilob hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishga sabab bo'ldi. Insoniyat tarixda birinchi marta fazoga qadam qo'ydi. Atom energiyasi, gen muhandisligi, elektronika, fazoviy telvideniya, eng yaqin harakat vositalari xalqlarning o'zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi.

¹ "Xalq so'zi" gazetasi 2009 yil 24-yanvar

Dunyo iqtisodiy hayotining globallashuvi muhim hayotiy va milliy manfaatlariga javob beradi. Chunki u davlatning dunyo xo'jalik jarayoniga qo'shilishiga va dunyo texnologiyasi, fani va madaniyati yutuqlaridan foydalanishga ko'maklashadilar. Shu munosabat bilan prezidenti I. A. Karimov shunday yozadi: «Milliy tafakkur o'z taraqqiyotida madaniy vazifalariga dunyo miqiyosida yonjdashishi, boshqa xalqlarning taqdiri, ularning o'zaro munosabatlari bilan yaqindan qiziqishi, ular hayotining eng teran nuqtalarigacha kirib borishi milliy manfaatlarini hisobga olish kerak».

Shu sababli XX asr Birinchi yarmining asosiy mohiyati demokratiyaning totalitarizm bilan, insonparvarlikning fashizm bilan globallashuvining ayrimchilik bilan kurashuvidan iborat bo'ladi.

XX asr voqealari asosan shu tariqa kechdi. Bu voqealar bir tekis rivojlanmagan va kechmagan, albatta, ular har bir mamlakatda, o'z xususiyatlariga, nomoyon bo'lish shakillariga ega edi. Jahon tarixi va dunyo siyosati yigirmanchi yuzlikda ularning ta'siriga bog'liq holda turli bosqichlarni bosib o'tdi.

Prezidentimiz Islom Karimovning qator asarlarida va kiyingi nutq va maruzalarida ilgari surilgan va xalqimiz tomonidan shiddat bilan amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqimiz oldida turgan ulug' va mushtarak vazifalar: ozod va obod vatan, erkin va farovon turmush barpo etish; dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin egallash; adolatli, huquqiy demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo etish kabi ulkan vazifalarni bajarishimizda O'zbekiston Respublikasining qo'shni davlatlar bilan olib borayotgan ijtimoiy siyosiy, madaniy sohalarda olib borayotgan har tomonlama munosabatlarimiz ham muhim xalqaro ahamiyat kasb etadi. «Ayniqsa bugungi kunda hamdo'stlik davlatlari o'rtasida eng qudratli, salohiyat va ulkan imkoniyatga ega bo'lish Rossiya federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatish O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida bo'ldi. Shuning uchun I. A. Karimov «Rossiya federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatish O'zbekiston uchun juda muhimdir va biz bu

maqsadimizga erishish uchun bor kuchimiz va imkoniyatlarimizni ayamaymiz»¹, - degan edi.

1992-yil 30-mayda O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Shu munosabat bilan prezidentimiz I. A. Karimov mulohaza yuritib, jumladan shunday dedi: "Eng quvonchlin jihati shuki, bu muhim voqiani ham rus, ham o'zbek xalqi katta xursadchilik va mamnuniyat bilan kutib oldi.

O'zbekiston-Rossiya o'rtasidagi teng hamkorlik, o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar iqtisodiyotning kiyingi yillarida ham davom etadi" – dedi.

O'zbekiston tashqi siyosatida Rossiya bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi. Mamlakatlarimiz o'rtasida 2004-yilda strategik sheriklik 2005-yilda ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar imzolanib, o'zaro hamkorlikning oliy bosqichga ko'tarish uchun huquqiy asos yaratiladi. Davlatimiz o'rtasidagi aloqalar o'zaro ishonch va manfaatdorlik asosida rivojlanmoqda. O'zbekiston va Rossiyaning siyosiy va iqtisodiy munosabatlari o'zaro ishonch va manfaadorlik asosida rivojlangan. Xalqaro maydonda ikki davlat bir-birini qo'llab, quvvatlab keladi. Bu muayyan muammo va masalalarga qarashlar o'xshash va yaqinligidan dalolatdir.

2008-yil 6-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi va Rossiya federatsiyasi hukumatlar o'rtasidagi 2008-2012 yillarda munosabatini tartibga solib turuvchi asosiy hujjatlar jumlasidandir. 1991-yildan to bugunga qadar O'zbekiston Respublikasi va Rossiya federatsiyasi o'rtasida jami bo'lib 236 ta xalqaro shartnoma imzolangan".²

Yurtboshimiz I. A. Karimov takidlagandek, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma ikki tomonlama hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochib berishga xizmat qiluvchi xujjatdir va u

¹ N. Jo'rayev va boshqalar. O'zbekistonning yangi tarixi uchinchi kitob. "Sharq" nashriyoti. T.: 2000. 529-bet.

² "Xalq so'zi" gazetasi 2009 yil 24 yanvar

mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning zarur kafolatlarini yaratadi¹.

Ikki mamlakat aloqalarning muhim bo'g'inni iqtisodiy yo'nalish tashkil etadi. Rossiya federatsiyasi O'zbekiston Respublikasining eng yirik tashqi savdo hamkori sifatidagi mavqeni saqlab qolmoqda. Zero, bugungi kunda jami tovar aylanmasining beshdan bir qismi Rossiya ulushiga to'g'ri keladi. Bu MDH mamlakatlari bilan savdo aloqalaridagi ko'rsatgichlarining yarmidan ko'prog'i demakdir.

“Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi hududida Rossiya federatsiyasi sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 786 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning uchdan bir qismi (252 tasi) so'ngi o'tgan ikki yil mobaynida ishga tushiriladi. Nizom jamg'armasi shakllarida esa ushbu mamlakatdan kiritilgan sarmoyalarning umumiy hajmi bir milliard dollordan oshadi. Yurtimizda, shuningdek, Rossiyada 127 ta firma va kompaniya va kolatlarini ochdi”².

O'z navbatida, Rossiya federatsiyasi hududida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari 349 ta korxona tashkil etilgan.

O'zbekistonning gullab yashnashida, yoshlarimiz ongida ma'naviy va ruhiy kuch-quvvat manbai bo'lgan milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish, jahon tarixi va uning uzviy qismi bo'lgan yangi tarix fanining ahamiyati haqida chuqur bilim yaratish. Ushbu kurs orqali talabalarga umum bashariy, ilg'or g'oyalarni jamiyatga-siyosiy, ijtimoiy ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohalariga singdirish zarurligi haqida tushuntirish, o'tmish ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan moddiy va ma'naviy ma'daniyatimiz durdonalari, an'analarni qadirlash to'g'risida mustahkam dunyoqarash hosil qilish ushbu kursning asosiy vazifalaridandir.

Yangi tarix fanidagi dolzarb masalalar, bu kurs jahon tarixining muhim bosqichlaridan biri ekanligi, jahon taraqqiyotida jamiyat ijtimoiy tuzumining va

¹ “Xalq so'zi” gazetasi 2009 yil 24 yanvar

² “Xalq so'zi” gazetasi 2009 yil 21 yanvar

ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishidagi sur'atlarning turli xilligi, ayrim mamlakatlar tarixida yuz bergan tanazzul, turg'unlik, orqaga ketish hollarining sabablari, buyuk geografik kashfiyotlar va ularning erkin bozor munosabatlariga ta'siri, ishlab chiqarish vositalari (mulk, korxonalar, yerlar)ga egalik, yo'lanma mehnat asosidagi xo'jalik yuritishga o'tish, bozor munosabatlariga feodal munosabatlarning g'ov bo'lib qolishi, monarxlarning noqonuniy faoliyati, zo'ravonligi, ruhoniy va zodagonlarning siyosiy hukmronligi jamiyat hayotini vayron qila boshlashi, mutloq, cheklanmagan hokimiyatchilikka qarshi kapitalistik ishlab chiqarishi va kurash XVII asr Angliya burjua inqilobi erkin bozor munosabatlariga yo'l ochishi, XVII-XX asrlarda Yevropa, Amerika, Osiyo qit'alaridagi muhim voqealar, mustamlakachilik, bosqinchilik urushlari, 1-jahon urushining kelib chiqishi sabablari, urush arafasida xalqaro munosabatlar tayyorlandi.

Prezident I. A. Karimovning asarlari, maqolalar va nutqlarida jamiyatimizni tubdan isloh qilish borasidagi ko'rsatmalari, tavsfiyalari va mulohazalari, demokralik huquqiy va fuqarolik jamiyatni barpo etishga oid yo'l-yo'riqlar hamda jahon tarixining bir qismi bo'lgan O'zbekiston tarixining yangi davriga oid qisnida bayon etilgan voqealarni o'tayotgan paytda yangi tarix materilallari bilan birga, qo'shib o'rgatish, G'arbiy Yevropa va Amerika mamlakatlaridagi taraqqiyotning sabablarini ochib berish jarayonida Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, Vatanimiz hududidagi aynan shu davrdagi, tarqoqlik, o'zaro urushlar va ularning oqibatida ijtimoiy iqtisodiy sohada yuz bergan qoloqlik va mustamlakachilik qanday sodir bo'lganini tushuntirish, asosiy maqsadlaridandir.

Vatanimizning buyuk istiqbolini ta'minlaydigan, mustaqillik g'oyalariga sodiq bo'lgan, haqiqiy vatanparvar yoshlarimiz dunyoqarashini shakillantirishga yordam beradi, shungdek, ularda taraqqiyotimiz muammoalari qiyinchiliklarining yechimini topishda nazariy va amaliy qo'llanma vazifasini o'taydi.

I-BOB. XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYANING IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY AHVOLI.

1.1.Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.

XIX asrning oxirlarida yuz bergan jahon agrar inqirozi Rossiya qishloq xo'jaligiga qattiq ta'sir etgan bo'lsada, mamlakat xalq xo'jaligi 80-90 - yillarda yana asta-sekin rivojlana boshladi. Og'ir sanoat tezlik bilan ilgariladi. Mayda sanoat ishlab chiqarish va manufaktura o'sa bordi. Temir yo'llarning uzunligi oshib bordi. Sanoat o'zgarishi tugallangan edi. Binobarin, bu vaqtda mexanizatsiyalashgan fabrika ishlab chiqarishning xalq xo'jaligidagi salmog'i 60-70 - yillardagiga qaraganda ancha baland edi¹. Chet el kapitali mamlakatga tez kirib kela boshladi. Ishchilar soni o'sdi. Sanoatning rivojlanishini ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich, 1881-1892 yillarni, ikkinchi bosqich, 1893-1900 yillarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda qishloq xo'jaligi jahon agrar inqirozidan katta zarar ko'rgan edi. 1891-1892 yillarda ocharchilik yuz berdi. Temir yo'l qurilishi qisqarib ketgan bo'lsada, og'ir sanoat o'sadi. Donetsk havzasi va Krivoy Rog o'rtasida bunyod qilingan temir yo'l metallurgiyaning rivojlanishiga yordam berdi.

Ikkinchi bosqichda Rossiya tarixida katta sanoat yuksalishi yuz berdi. Sanoatning barcha tarmoqlari qatori og'ir sanoat o'sdi. 90-yillarda mamlakat xo'jaligi ham iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda bank kapitalining roli oshib ketdi. 90-yillardagi sanoat yuksalishi davri umuman olganda Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy tarixida yangi davrni boshlab berdi. 80-90 - yillarda shuningdek, qishloq xo'jaligi ham taraqqiy etdi. G'alla narxining pasayishi to'xtadi. Qishloq xo'jalik taraqqiyotining ikkita xususiyati bor edi:

¹ Jahon tarixi. Toshkent. 2004 yil. 58-bet.

Birinchidan, qishloq xo'jaligining rivojlanishi "Prusscha yo'l"dan borayotgan edi. Ikkinchidan, dunyo bozorida g'alla narxining pasayib borishi Rossiya qishloq xo'jaligiga qattiq ta'sir ko'rsatadi. 70-yillardan 90-yillargacha qishloq xo'jaligidagi ahvol agrar inqiroz nomini oladi.

Rossiya qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chetga chiqarish o'sa boradi. Biroq, g'alla asosiy chetga chiqariladigan qishloq xo'jaligi mahsuloti bo'lib qolaverdi.

80-90-yillarda Qozog'iston cho'llariga asosan rus va ukrain dehqonlarini ko'chirish dehqonchilikning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Rossiya qisqa vaqtda 1898-1901 yillarda neft qazib chiqarish bo'yicha AQSHdan o'tib ketdi va dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Chet elga asosan kerosin chiqarilardi. Yuksalish yillarida cho'yan eritish uch barobar oshdi. Metall eritishda dunyoda to'rtinchi o'rinni egalladi. Sanoat yuksalishi yillarida mashinasozlik taraqqiy etdi. 80-yillarda mashinasozlik, temir va metallurgiya sanoati yuksalgan bo'lsa, 90-yillarda bu o'sish temir yo'l, parovoz va vagonsozlikda davom etdi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi mashinasozligi vujudga keldi. Shu bilan birga hali chet eldan ko'plab qishloq xo'jaligi mashinalari keltirish davom etar edi. 90-yillarda iste'mol buyumlari ishlab chiqarish og'ir sanoatga nisbatan sekin o'sdi.

Bu davr Rossiyaga chet el kapitali juda ko'p solinganligi bilan xarakterlanadi, ya'ni bu ko'rsatkich uch barobar oshib, XX asr boshlariga kelib 911 mln. rublga yetdi. Ayniqsa, Frantsiya, Belgiyaning kapitali ko'plab kirib kelgan. Chet el kapitalining asosiy qismi ko'mir, metallurgiya, neft sanoati va mashinasozlikka sarflandi.

Rossiya sanoatida ishlab chiqarish yiriklashdi va ichki jihozlar bilan uskunalandi. 80-yillarda 1-sindikati bitimlari tuzildi. Masalan, 1886 yilda mix sindikati, 1887 yilda qand sindikati tuzilgan. Ular Rossiyadagi monopoliyalar taraqqiyotining dastlabki bosqichi bo'lgan.

XX asrga kelib monopolistik birlashmalar tashkil topishi jarayoni kuchaydi. Metallurgiyada-“Prodamet”, “Truboprodaja”, uysozlikda “Krovlya”, rangli metallurgiyada – “Med”, ko'mir sanoatida – “Produgol” sindikati, neft sanoatida – “Nobel-mazut” karteli, tog'-kon sanoatida “Prodrud” sindikati (1907), temir yo'l sohasida “Prodparovoz”, “Prodvagon” (1901) kabi monopoliyalar paydo bo'ldi.

1909 yilda 45 sanoat tarmog'ida 140 ta monobirlashma bor edi. Ularning eng yirigi “Prodamet” va “Produgol” edi¹.

Rossiya sanoati yuksalishi bilan birga chet elliklar mamlakatdagi ko'p foyda beradigan tarmoqlarni aksiyalarini sotib ola boshladilar, Masalan, Londonda 1908 yili tashkil etilgan “Lena-Goldfilde” jamiyati Lena oltin konlari joylarining egasi bo'lib olgan. Rus sanoatiga qo'yilgan chet el sarmoyalari orasida frantsuzlar 1-o'rinda turgan, undan so'ng inglizlar, nemislar turganlar.

Qishloq xo'jaligida kapitalizmning ko'rinishi shu ediki, bunda ekinlar ekish ixtisoslashib borgan. Krepostnoylik qoldiqlari hukmron bir sharoitda, qashshoq va savodsiz rus dehqoni ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilinib, sanoat burjuaziyasining changaliga tashlangan. Janubiy hududlar asosan g'allachilikka ixtisoslashtirilgan, chet o'lkalar, masalan, O'rta Osiyo paxta yetishtiriladigan hududga aylantirilgan.

¹ Yangi tarix. Toshkent. 2008 yil. 78-bet.

Chorizmning ichki siyosati. Ijtimoiy harakat

Rossiyada yuz bergan bozor munosabatlariga o'tish bilan sodir bo'lgan o'zgarishlar dvoryanlarning iqtisodiy ahvoliga putur yetkazdi. Pomeshchiklarning olgan vikuplari ham sarflanib ketdi. Kambag'allashayotgan dvoryanlar eski feodal tartibni xohlar edilar. Ular chorizmning tayanchi edilar. Rossiya monarxiyasi feodal-dvoryanlar davlati edi, Korxonalarda ish soatlari 12-13, to'qimachilikda esa 13-14 soatni tashkil etardi. Kavkaz, Qozog'iston, O'rta Osiyo ishchilari ahvoli yanada og'ir edi. Ayni paytda ishchilar manfaatlari uchun kurashadigan harakat yuzaga keldi. 1883 yilda G. V. Plexanov "Mehnatni ozod qilish guruhi" ni tuzdi. Xuddi shunday guruh Sankt-Peterburgda Bolgar talabasi Dmitriy Blagoev tomonidan tuzilgan edi¹. 1885 yili P.Tochisskiy guruhi ham faoliyat ko'rsatgan. Brusnev guruhi ham ishchilarning himoyachisi bo'lgan. Shuningdek 80-90-yillarda ijtimoiy harakat milliy o'lkalarga ham yetib bordi va Ukraina, Boltiqbo'yi, Kavkaz orti, O'rta Osiyoga tarqaldi. Bu harakat O'rta Osiyoda jadidchilik ko'rinishida namoyon bo'ldi.

1904 yilda ijtimoiy harakat Piterda qayta jonlandi. 250000 ishchi bo'lgan poytaxt fuqarolari urushga qarshi qo'zg'aldi. Ular non, ish talab qildilar. Chor oxrankasi tavsiyasi bilan ruhoniylar Gapon "Sankt-Peterburg shahrining rus fabrika-zavod ishchilari yig'ilishi" degan jamiyat tuzdi. U ishchilarni kurashmasdan, podshoga "iltimosnoma" bilan murojaat qilishga chaqirdi. Unda ta'asis majlisini chaqirish, demokratik erkinliklar berish, urushni to'xtatish kabi talablar yozilgan edi.

1905 yil 9 yanvar kuni yuz minglab ishchilar xotin-bolalarini olib, podshohga arz qilishga jo'nadilar. Ammo imperator ularni o'q bilan qarshi oldi. 5000 dan ortiq kishi o'ldi va yarador bo'ldi. "Qonli yakshanba" deb tarixga kirgan

¹ Lafasov, Jo'rayev. Jahon tarixi. T.: "Sharq". 2009. 110-bet.

bu xunrezlikdan butun mamlakat ishchilari, Moskva, Riga, Varshava, Boku va boshqa joylarda ish tashladilar.

1905 yil 12 mayda Ivanovo-Voznesenskda yirik ish tashlash bo'ldi. 1905 yil yozda Qora dengiz flotida matroslar qo'zg'oloni bo'ldi.

Podsho qo'rqib, Dumaga saylovlarga ruxsat berdi. Ammo Dumalarga saylovlar natija bermadi. Duma tarqatib yuborildi. 1907-1912 yil Rossiya tarixida chor hukumati raisi Stolipin nomi bilan reaksiya yillari deb ataladi.

II-BOB. XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYANING TASHQI SIYOSATIDA

MAG'LUBIYAT SABABLARI VA ULARNING OQIBATLARI.

2.1.Rossiyaning tashqi siyosati.

XIX asr oxirida Rossiyaning G'arb davlatlari bilan munosabatlari yomonlashdi. Rossiyaning tashqi siyosatdagi obro'siga putur yetgan, harbiy qudrati zaiflashgan edi. Xalqaro munosabatlarda, Yevropa siyosati masalalarini hal etishda Rossiyaning roli pasaya boshladi. Bunga sabab Rossiyani Bolqon yarimorolidagi ustunligidan mahrum etilishi bo'ldi.

Qora dengiz va Bolqon masalasi Rossiya-Turkiya munosabatlaridagi ziddiyatlarning bosh sababi Serbiya-Turkiya urushi 1876-1877 tugab, 1877 yil fevralida Turkiya bilan tuzilgan sulh shartnomasiga Serbiya imzo qo'ydi. Chernogoriya esa urushni davom ettirdi. Mart oyida G'arb davlatlari Rossiyaning tashabbusi bilan Turkiyaga armiyada demobilizatsiya va islohotlar o'tkazishni taklif qildilar. Rossiya aynan bir vaqtda demobilizatsiya o'tkazish haqida munozara boshlash uchun Peterburgga Turkiyadan o'z vakillarini yuborishni va Bolgariya, Bosniya, Gertsegovinaga ozodlik berishni so'radi. Ammo Turkiya bu taklifni rad qildi¹. 1877 yil 12 aprelda Aleksandr II Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi. Plevna va Shipka uchun bo'lgan janglar ayniqsa, shiddatli bo'ldi. Usmon poshsho 43 ming turk soldati va ofitseri bilan taslim bo'ldi. Dekabr oyida Turkiyaning ahvoli og'irlashdi. 2 dekabr kuni Serbiya unga qarshi urush boshladi. Chernogorionaliklar bir qancha muvaffaqiyatga erishdilar va 23 dekabrda Sofiyani ishg'ol qildilar.

1878 yil yanvarda butun front bo'ylab rus qo'shinlarining umumiy hujumi boshlandi. Turklarning Sulaymon poshsho qo'mondonligidagi qo'shinlari tor-mor qilindi. Qarshilik ko'rsatishga kuchi qolmagan Turkiya sulh so'rashga majbur

¹ Jahon tarixi. Toshkent. 2004 yil 68-bet.

bo'ldi. Yarash sulhi tuzilgandan keyin rus armiyasi Istambulga qarab yurishni davom ettirdi. Bu esa Turkiyani bosib olinishidan xavotirlangan Angliya va Avstriya-Vengriyani tashvishga soldi. Ular sulh tuzishni talab qildilar, ayni paytda ingliz floti Marmar dengiziga kiritildi, bunga qo'shimcha ingliz hukumati Rossiya bilan "diplomatik aloqani uzamiz" deb do'q urdi.

Rossiyaning ahvoli ham yaxshi emas edi, armiya bazalaridan uzoqlashib ketgan qurol-yarog', oziq-ovqat, kiyim-kechak tanqisligi vujudga kelgan, turli kasalliklar avj olgan bir sharoitda Rossiya sulh tuzishga rozi bo'ldi. 1878 yil 19 fevralda San-Stefanoda sulh tuzildi. Sulhga muvofiq Turkiya hukmronligi ostidagi ko'plab xalqlar ozodlikka erishdilar. Bu masala ikkinchi marta 1978 yil iyunda Berlin kongressida qayta ko'rib chiqildi. Ruminiya, Serbiya, Chernogoriya, Bolgariya mustaqil bo'ldi. Rossiya, Janubiy Ukraina, Bessarabiya, Qrim, Shimoliy-G'arbiy Kavkaz, Kavkazning Qora dengiz bo'ylari, janubiy-g'arbiy Gruziya, Shimoliy Armanistonga ega bo'ldi.

Rossiya Uzoq Sharq masalasiga katta e'tibor berardi. Ayniqsa, Amurbo'yi va Primorega qiziqish kuchaydi. Bu hudud garchi Xitoyga qarasada, unda birorta ham Xitoy fuqarosi yashamasdi. Shuning uchun Rossiya Amurbo'yi va Ussuri o'lkasini bosib oldi. XIX asr 70-yillari boshida Rossiya-Yaponiya munosabatlari yaxshi edi. Hatto ruslar yaponlarga qarshi AQSH-Angliya-Fransiya ekspeditsiyasida ishtirok etmadi. Rossiya Saxalinga egalik qilish uchun harakat qilardi. 1875 yil aprelda Peterburgda Saxalinga egalik qilish uchun, Kuril orollarini Yaponiyaga berish to'g'risida shartnoma imzolandi. Ammo XIX asr oxiri XX asr boshidagi kapitalistik mamlakatlar o'rtasidagi dunyo bozorlari uchun kurash bu ikki davlatni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'ydi.

Rossiya-Yaponiya o'rtasida urush xavfi paydo bo'ldi. Chor hukumati Manjuriya va Xitoy masalasida yon berishiga qaramay Yaponiya muzokaralarni to'xtatib, 1904 yil 24 yanvarda urush boshladi.

Rossiya va Yaponiya o'rtasidagi bu urush Yaponiyaning Rossiyaga qarshi urushini manfaat deb bilgan davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar tufayli sodir bo'ldi.

Urush adolatsiz, talonchilik, bosqinchilik urushi bo'lib, u asosan Xitoy va Koreya hududida avj olib ketdi.

Chor Rossiyasi urushga tayyor emasdi. Uzoq Sharqda uning 100000 ga yaqin qo'shini bo'lib, Vladivostok va Port-Arturda taxminan bittadan diviziya turardi xolos.

Yaponiya ham ancha zaif edi. Biroq uni Angliya va AQSH quvvatladi.

Yaponiya asosan dengiz janglarida, to'satdan hujum orqali ustunlikka erishdi, masalan, Port-Arturga 1904 yil 27 yanvar kechasi hujum qilib, ikkita brononsets va bir kreyserni portlatdilar, Ertasi kuni admiral Togo eskadrasi shaharni bombardimon qildi, 17 iyuldan boshlab qamal qilindi va qamal 157 kun davom etdi. General R.I. Kondratenko boshliq himoyachilar yaponlarning generali Nogi boshliq armiyasi hujumlarini barchasini qaytardilar¹.

XIX asr oxiri – XX asr boshida bo'lgan jahon iqtisodiy krizisi sanoat kapitalizmining imperializmga o'tishini tezlashtirdi va shu bilan birga barcha kapitalistik davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni misli ko'rilmagan darajada kuchaytirdi. Barcha mamlakatlarning kapitalistlari iqtisodiy krizisdan chiqishni izlab, mustamlakalar bosib olishni krizisni tugatishning hal qiluvchi vositasi deb bilganliklari sababli, yangi mustamlakalarni qo'lga kiritish uchun kurashni kuchaytirib yubordilar. Ammo kapitalislar o'rtasida begona territoriyalarni bosib olish uchun kurash XX asr boshlarida shubhasiz imperialistik urushlarni keltirib chiqarardi. Shuning uchun u yoki bu davlatning yangi mustamlakalar bosib olish imperialistlar o'rtasida taqsimlab olingan territoriyalarni qaytadan bo'lish uchun kurashga aylanadi.

¹ Yangi tarix. Toshkent. 2008 yil. 88-bet.

Harbiy to'qnashuvlar navbatma-navbat to'xtamasdan davom etib, ulardan eng yiriklari quyidagilar: 1894-1895 yillardagi yapon-xitoy urushi, 1898-1899 yillardagi amerika-ispn urushi va AQShning Filippinni bosib olishi, 1899-1902 yillardagi anglo-burlar urushi, 1900-1901 yillardagi Xitoyga qarshi imperialistik davlatlarning eng yirik intervensiyasi va nihoyatda 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushi edi.

Ayniqsa tinch okeani havzasi xususida va dastavval Xitoy territoriyasi xususida imperialistik davlatlar o'rtasida keskin kurash boshlandi. Barcha yirik imperialistik davlatlar – Yaponiya, AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya Xitoyning territoriyasini taqsimlab olish uchun kurash boshladilar. Bu kurashda chor Rossiyasi ham aktiv rol o'ynadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yapon harbiylari va burjuaziya Xitoyga qarshi keng agressiyaning tashabbuskori bo'lib chiqdilar. 1894-1895 yillardayoq yapon imperialislari Xitoyning iqtisodiy va harbiy kuchsizligidan foydalanib, Xitoyga qarshi urush boshlab yubordilar, unga haddan tashqari og'ir bo'lgan sulh shartlarini qo'ydilar. Xitoy hukmdorlari harbiy kuchlar tazyiqi ostida o'zining mag'lubiyatini tan olishga va yapon harbiylari tomonidan Tayvan orollari bosib olinishiga, Lyaodun yarim orolini Yaponiya tomonidan ijaraga olinishiga rozi bo'lishga majbur bo'ldilar. Xitoy juda katta kontributsiya to'lashga va Koreyaning “mustaqiligini” tan olishga majbur bo'ldilar.

Yapon imperialistlarining Xitoy ustidan g'alabasi va Simonoseki shahrida yaponlar tomonidan taqdim etilgan haddan tashqari og'ir sulh shartlariga imzo qo'yilishi, barcha mamlakatlarning imperialistlari o'rtasida juda qattiq kurashga olib keldi. Ular Xitoyni “himoya” qilib chiqdilar va Yaponiyani Lyaodunni ijaraga olishdan bosh tortishga majbur qildilar. Ular Xitoy hukumatining Yaponiyaga kontributsiya to'lashga “yordam” berdilar. Ammo barcha eng yirik mamlakatlarning imperialistlari tomonidan Xitoyni bunday “himoya” qilish xitoy xalqiga juda qimmatga tushdi. Angliya Xitoydan Veyxayven territoriyasini “ijaraga” oldi va uning shimoliy qismida harbiy port qurdi. Germaniya ham huddi

shunday shunday qildi, u Sindaoda harbiy port qurdi, Fransiya esa Fransiya esa Guanchjouvan ko`rfazida harbiy port qurdi.

AQSh 1899 yilda Fillipinni bosib olgach, “ochiq eshiklar” siyosati va savdo uchun “baravar imkoniyatlar” siyosatini e’lon qilib, Xitoyga qarshi keng hujumni kuchaytirib bordi. Ular bu siyosat bilan butun xitoy bozorini o`zlariga bo`ysundirishga umid bog`ladilar.

Chor Rossiyasi Uzoq Sharqda o`zining pozitsiyasini mustahkamlashdan manfaatdor bo`lganligi sababli 1895 yilgi yapon – xitoy shartnomasini o`zgartirilishining eng aktiv tarafdorlaridan biri bo`ldi. 1896 yilda Rossiya Xitoy bilan mudofaa ittifoqi to`g`risida deb atalgan shartnomaga va Manchjuriya territoriyasi orqali Xitoy – Sharqiy temir yo`li (KVJD) qurish to`g`risidagi shartnomaga qo`l qo`ydi. 1898 yilda chor hukumati Lyaodun yarim orolini ijaraga olish va Port-Arturda harbiy-dengiz bazasi qurish to`g`risida Xitoyning roziligini olishga erishdi¹.

Xitoy xalqiga nisbatan imperialistik davlatlarning jinoyatkorona siyosati marksistlar tomonidan qattiq qoralandi. Imperialistik davlatlarning Xitoyga har tomonlama hujum qilishi, uning territoriyalarini bosib olishi, uni asoratli shartnomalar tuzishga majbur etishi, shuningdek, imperialistlar tomonidan xitoy mulklari ustidan mamlakatchilik rejimlarining o`rnatilishi xalq noroziligini tug`dirmasligi mumkin emas edi. Xitoy imperatorlik saroyining, uning ministrларini xalqqa qarshi siyosati, ularning sotqinligi va chet el imperialistlari oldida malaylik qilishi xalq tomonidan qo`zg`olonlar ko`tarilishiga asosiy sabab bo`ldi. Xitoyda xalq noroziligining uchqunlari 1895-1896 yillarda bo`lib o`tdi. 1897-1899 yillarda 1905 yil fevralda general Nogi Mukdenga hujum boshladi. Bu jangda ham ruslar yengildi.

¹ Lafasov, Jo`rayev. Jahon tarixi. T.: “Sharq”. 2009. 104-bet.

1905 yil 15 mayda Tsushima yonidagi jangda rus floti tor-mor qilindi. “Varyag”, “Admiral Makarov” va boshqa rus kemalarining matroslari mardlarcha jang qilishiga qaramasdan, Rossiya urushda to’la mag’lubiyatga uchradi. Mamlakatda norozilik boshlandi.

Rossiyaning ichki va tashqi siyosatidagi ahvoli yomonlashdi. Chorizm Germaniya bilan yaqinlashishga intildi. Shunda Avg’onlar yengilib, Rus qo’shinlari Kushkani va Hirotga, Avg’onistonning “SHimoliy darvozalari” ga boradigan yo’ldagi Avg’on shaharchasi Panjni ishg’ol qilganida Angliyada yana urush jazavasi avj oldi. Angliya va Rossiya o’rtasida urush bo’lishi muqarrar deb o’ylashar edi. Yevropa mamlakatlarining poytaxtlarida bu davr to’g’risida kiyinchalik bunday deb yoizishgan edi: “Rossiyaning O’rta Osiyoda o’ljani taqsim qilish to’g’risida (Avg’oniston; Rus qo’shinlarining O’rta Osiyo ichkarisiga qarab harakat qilishi Hindistonda Inglizlarning hukumronligi uchun xavf tug’durar edi) Angliya bilan urushishiga oz qolgan edi...” ammo Angliya va Turkiya o’rtasida yuz bergan va Angliyaning Misrni bosib olishi bilan yakunlangan ixtilof 1885-yilda tugadi. Ingliz Rus aralash harbiy komissiya Rossiya bilan Avg’oniston chegarasini belgilashga kirishdi. Rossiya Avg’oniston va Hindiston o’rtasida Erondan Pomirgacha chegarani belgilab 1895 yilda tomom bo’ldi. Angliyani O’rta Osiyoni bosib olish plani amalga oshmadi.

Urush xafi tobora ravshanroq ko’rina boshlagan sari, CHor hukumati Manjuriya masalasida yon berish yo’lini tutdi. CHor hukumati Yaponiya va boshqa davlatlarning Manjuriya bo’yicha Xitoy bilan tuzgan shartnomalarini tan olishga rozilik bildirdi. Lekin Yaponlar Ruslarning murosas tomon intilishini tan olmay, urushni tezroq boshlash maqsadida edilar. 1904-yilning 24-yanvarida muzokaralarni to’xtatib, urush e’lon qilmasdan turib jang boshladilar.

23-yanvarda Yapon emperatori Rossiyaga qarshi urush harakatlarini boshlash to’g’risida armiyaga yashirin farmoyish berdi. 24-yanvarda Yaponiya “muzokaralarning foydasizligi” to’g’risida xabar berdi va Rossiya bilan diplomatik aloqalarni uzdi. Xuddi shu kuni admeral Togo qo’mondonligidagi

Yapon filoti Rus kemalariga hujum qilish to'g'risida buyruq oldi. Urish Xitoy va Korriya hududida avj olib ketdi. Yaponiya o'zining asosiy kuchlarini Vladivostokka va Rossiyaning uzoq sharqdagi chekka o'lkasiga qaratishga botina olmadi. Birinchi zarba Rossiyaning Tinch okianda, Port-Arturda joylashgan flotiga berildi. CHor rossiyasi urushga yaxshi tayyorlanmagan edi. Urush vaqtlarida uzoq sharqda hammasi bo'lib yuz mingga yaqin askar bor edi, xolos. Qo'shinlar tarqoq holda bo'lib, Port-Artur va Vladivostok garnizonlarida taxminan bittadan diviziya bor edi. Yaponiya ham iqtisodiy jihatdan zaif davlat edi, biroq Angliya va AQSH yordamida u urushga yaxshi tayyorgarlik ko'rdi.

1904-yil 27-yanvarga o'tar kechasi Yapon harbiy kemalari Port-Arturning tashqi reydidagi yetarli daraja qo'riqlanmay turgan rus kemalariga to'satdan hujum qilib, ikki bironenosets va bitta kreyserni portlatdilar. ertasi kuni ertalab Yapon filotining asosiy kuchlari admiral Togo qo'mondonligida eskadra va shaharni bombardimon qildi. Xuddi o'sha kuni Yapon kemalarining boshqa bir qismi CHemulopaga yaqin kelib, u yerdagi rus kemalariga hujum qildi.

1904-yil 17-iyulda Port-Artur qal'asi uchun bevosita urush boshlandi. Bu kurash 157 kun davom etdi. qal'aning quruqlikdagi mudofasiga general r. i. kodratenko rahbarlik qildi.

3-avgust Yaponlar qal'ani bo'shatishni talab qildilar. rad jovobidan keyin yaponlar hamla boshladilar. lekin bu barbod bo'ldi. bu birinchi hamla edi. 6-sentabirda ikkinchi hamlani boshladi. 9-sentabirda shiddatli janglardan keyin hujum to'xtatildi.

Yapon qo'shinlari Port-Artun ostonalarida muvaffaqiyatsizlikka uchragan bir vaqtda, ular manjuriyaning shoxil daryosidagi jangda yangi yutuqqa erishdilar. Port-Artur ostonalariga 17-oktabirda uchinchi, 13-noyabrda to'rtinchi hujumlarini boshladi. jang shiddatli tarzda bordi. Kuchlar teng emas edi. 22-noyabr kechqurun Yaponlar visokaya tog'ini bosib oldilar. Port-Artur mudofasining bosh

tashkilotchisi R. I. Kodratenko bir guruh ofetserlar bilan birga 2-dekabrda halok bo'ldi.

20-dekabrda qal'a Yaponlarga taslim bo'ldi. qal'a garnizonining umumiy talofati o'lganlar va daraksiz ketganlar bilan jami bo'lib, 17 ming kishini tashkil qildi. Port-Arturning qo'ldan ketishi urushning hal qiluvchi davri bo'ldi. Yaponlar Port-Artur yonidagi Nogi armiyasi hisobiga kuchayib, 1905-yil fevralda mukdenga hujum boshladilar. har ikki to'monning kuchlari teng edi. lekin bu jangda ruslar mag'lubiyatga uchradi. chor hukumati tinch okiandagi 2-eskadraga so'ngi umidini bog'ladi. bu eskadra vits-admiral rojdestvenskiy qo'mondonligi ostida edi.

1905-yil 14-mayda rus floti korriya bo'g'oziga kirdi. jang boshlanadi. 15-mayda esa jang yapon floti g'alabasi bilan yakunlandi. Ruslarning Susima yonidagi mag'lubiyatidan butun dunyo xabar topdi. 1904-yilning oktabrida Rossiya Anliya baliq ovlovchi kemasini yanglishib, Yaponlarniki deb portlangan edi. bundan ikki davlat o'rtasiga sovuqchilik tushdi. Anashu vaziyatda Firansiya va Anglaya "Til topishdilar". 1904 yil 8-aprelda ular o'rtasida samimiy kelishuv "Antanta" degan bitim tuzuldi. bu bitim asosiy janjalli masalalarni hal qildi va Afrikadagi ta'sir doirasini tartibga soldi¹.

1905 yil mayda Nikolay II Amerika elchisini qabul qildi. elchi AQSH prezidenti T. Ruzveltning Rossiya va Yaponiya o'rtasidagi sulhni bog'lash to'g'risidagi taklifni yetkazdi.

1905 yil 29-avgustda sulh imzolandi. Rossiya korriyadagi ta'siridan mahrum bo'ldi. U o'zining Port-Artur va Daliniy hamda bu joylarda bo'lgan barcha mulkni ijaraga berish huquqidan batamom vos kechdi. Xuanchenzi stansiyasi bilan (sharqiy xitoy temir yo'lida) Port-Artur o'rtasidagi temir yo'lni, barcha parvoz va vagonlari, toshko'mir konlari bilan birga Tokioga berdi. Yaponiya Saxalinning 50 Gradus Shimoliy kenglikkicha bo'lgan Janubiy qismini ham oldi. Yaponiyaning

¹ Jahon tarixi. Toshkent. 2004 yil. 98-bet.

baliq ovlash to'g'risidagi talablari maxsus bitim bilan tartibga solinadi. Rossiya katta miqdorda o'lpon to'lardi. 5 yil mayda Port-Smutda sulh imzolandi. Unga ko'ra Rossiya Port-Arturva Dalniy portlaridan, Sharqiy Xitoy temiryo'li va Saxalinning janubidan mahrum bo'ldi.

2.2.Rossiyaning chekka o'lkalardagi siyosati.

Rus hukmron doiralarining zulmi ko'p millatli Rossiya xalqlari yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushdi. Chorizm milliy madaniyat muassasalarini yo'q qilib, "ruslashtirish" siyosatini o'tkazdi.

Polshada milliy bank yo'q qilindi, u "Visla bo'yi banki" deb ataladigan bo'ldi. Maktablarga emas, butun ma'muriy tashkilotlar "ruslashtirildi".

Finlyandiyada Fin pochta siyosatiga zo'r berildi. Hatto Buxoro va Xivaning man-man degan amaldorlari Rossiyaga borib, o'qib kelishga majbur qilingan edi, "Rus-tuzem" maktablari tuzildi, ularda rus dasturi va tili asoslarida ta'lim berilardi.

Umuman XIX asr oxiri va XX asr boshidagi ahvolga nazar tashlarkanmiz, jahon maydonida eski kuchlar o'rnini yangilari egallaganini ko'ramiz, jumladan, ilgari iqtisodiy baquvvat va ilg'or bo'lgan davlatlardan Frantsiya, Angliya, yosh davlatlar - Germaniya, AQSH, Yaponiya tomonidan qisib qo'yila boshlandi. Natijada, yuqorida qayd etilganidek, Angliya-Frantsiya davlatlari 1904 yilda bir-biri bilan yaqinlashdilar.

1907-1914 yillardagi xalqaro vaziyatning xususiyati shundan iborat bo'ldiki, mehnat bilan kapital o'rtasidagi, rivojlangan davlatlar bilan ularning mustamlakalari kapitalistik davlatlar o'rtasida o'zaro ziddiyatlar keskinlashib ketdi. Chorizmning Yaponiyadan yengilishi natijasida Rossiyaning Uzoq Sharqdagi bosqinchilik rejalari barbod bo'ldi. Eron, Afg'oniston, Turkiyadagi ta'siri kamaydi.

1907 yil 13 avgustda Peterburgda Rossiya bilan Angliya o'rtasida Eron, Afg'oniston, Tibetdagi manfaatdor doiralar chegaralarini belgilash to'g'risida bitim imzolandi. Angliya-Rossiya bitimidan ko'zlangan maqsadlardan biri Osiyo xalqlarining o'sib borayotgan ozodlik harakatiga qarshi, eng avvalo, Eron inqilobiga qarshi kurashmoq uchun ingliz-rus kuchlarini birlashtirish edi. Shu yili

ularga Frantsiya ham qo'shildi. Bu bitim Yevropaning bir-biriga qarshi turgan ikkita harbiy-siyosiy blokka "Antantaga"-Rossiya, Angliya, Frantsiya va ularning ittifoqchilari Germaniya, Avstriya-Vengriya, Italiyaga bo'linishini tugalladi. Bu birinchi jahon urushiga olib borgan yo'ldagi "muhim" bosqich bo'ldi. Shunday qilib Rossiya birinchi jahon urushiga tayyorlana boshladi. Aleksandir III hukumronlik qilgan butun davrda podsho hukumatining tashqi siyosati o'z mohiyata bilan chorizimning 70-yillardan boshlab yurgizib kelgan tashqi siyosatining davomati edi¹.

Mamlakat ichida tez rivojlanayotgan sanoat kapitalizmi qoloq, yarim feodal yer egaligi o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashgani sari bu siyosatning bosqinchilik характери kuchayib bordi. Yosh rus burjuaziyasining yangi territoriyalari bosib olishga intilishi ichki bozorning nihoyatda sekin o'sishi natijasida paydo bo'ldi. million-million dehqonlarning qashshoqligi va pomishchik xo'jaligining qoloqligi ichki bozorning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Rossiyadagi hukumron pomeshchiklar sinfi burjuaziyasining yangi territoriyalar bosib olish yo'lidagi intilishlarini qo'llab-quvvatladi, chunki bu siyosat, birinchidan, tez rivojlanayotgan yirik sanoat bilan rivojlanishida orqada qolayotgan dehqonchilik kapitalizmi o'rtasidagi ziddiyatlarni boshashtirdi. Uchinchidan esa, katta-katta yangi yerlarni bosib olishdan, yangi xomashyo rayonlarni ekspluatatsiya qilishda ishtirok etishda va dvoryanlarning bosib olingan territoriyalaridagi ko'p sonli harbiy va ma'muriy lavozimlarni egallashidan Dvoryan-pomeshchiklar sinfining o'zi ham bevosita manfaatdor edi. Kuchayib, mustahkamlanib olayotgan sanoat burjuaziyasining manfaatlarini va shuningdek, g'alla va qishloq xo'jalik mollarini eksport qiluvchi pomeshchiklarning manfaatlarini ko'zlab, podsho hukumati avvalgi mo'n yil ichida O'rta Osiyodagi bir qancha yerlarni istelo qilishda erishgan yutuqlariga tayanib, butunlay bosib olishga intildi.

¹ Yangi tarix. Toshkent. 2008 yil. 98-bet.

Podsho hukumatining yaqin sharqdagi asosiy maqsadi bolqonga iqtisodiy siljishni kuchaytirish va bu rayonda o'z siyosiy ta'sirini mustahkamlash edi. o'z maqsadlarini amalga oshirishda podsho hukumati rus armiyasi yordami bilan turkmanlarning asriy jabir-zulmidan qutulgan va Rossiyaning o'zlariga Turkiya tomonidan bo'lishi mumkun bo'lgan agrissiv harakatlardan himoya qiluvchi asosiy ittifoqchi deb bilgan bolqon xalqlarining Rossiyaga nisbatan oshib borgan do'stona munosabatlariga tayangan edi. Bundan tashqari, podsho hukumati o'zlarining bo'g'ozlardan erkin foydalanish huquqini tiklashga va qora dengizi hisoblangan chet el davlatlarining bo'g'ozlariga konronlik qilishini tugatishga intildi. Lekin podsho Rossiyaning 1879 yilda berlin kongiresida siyosiy mag'lubiyatga uchraganligi, so'ngi ikki urush natijasida anchagina moliyaviy-iqtisodiy qiyinchilik kechirayotganligi hamda buyuk davlatlarning xalqaro maydondagi kuchlar nisbati o'zgarganligi uning bu maqsadlarni amalga oshirishni murakkablashtirdi.

Eng yirik empiralistik davlatning dunyoni uzil-kesil qayatan taqsimlash uchun bir-biri bilan olib borgan kurashi 80-yillarda juda ham keskinlashib ketdi. Bu kurashda Angliya bilan Fransiyaning Yaqin Sharqdagi va Afrikadagi ziddiyatlari asosiy o'rin tutardi.

Fransiya va Angliyaning mustamlakalari uchun bir-biri bilan raqobat qilishi ikkila davlatning Yevropaga harbiy blok tuza boshlagan germaniyaga qarshi kurashi bilan murakkablashdi.

Berlin kongresi qarorlari natijasida Rossiyaning xalqaro ahvoli yanada og'irlashdi. Avstriya-Vengriyaning Bosniya va Gersogaviniyani okkupatsiya qilish bilan bu davlatning zulm ostida jabir chekib yotgan Silavyan xalqlarining soni ancha ko'paydi. G'arb davlatlari Bolgariya territoriyasini bo'lib yuborib va Avstro-Vengriya tomonidan Bosniya va Gersogavinaning okkupatsiya qilishini quvvatlab, Balqonda Avstriy-Rossiya ziddiyatlarini kuchaytirdilar va bu ziddiyatlardan o'z maqsadlari uchun foydalandilar. Avstriya-Vengriya kapitalinig zo'r berib Serbiya-Bolgariyaga o'tib kirishga birinchi galda Germaniya yordam berdi, chunki bu Fransiya tomonidan ro'y berish mumkun bo'lgan revanishga

qarshi o'zining Avstriya-Vengriya bilan bo'lgan ittifoqidan va Avstriya-Rossiya ziddiyatlarini hal qilishda vositachilik rolini o'zida saqlab qolishdan hamda Rossiyani Germaniya uchun xavfli bo'lgan Turkiya-Rossiya ittifoqiga qo'shilish fikridan boshqa tomonga burib yuborishdan manfaatdor edi. Rossiya bilan Avstriya o'rtasidagi keskinlashuvdan manfaatdor edi, chunki u bu munosabatlarning yondashuvi Rossiyaning O'rta Osiyoga yana ham ko'proq kirib borishni to'xtatadi¹.

Rossiyaning 80-yillardagi tashqi siyosatiga Germaniyaga moyillik bilan ish tutish tarafdorlari bo'lgan N. K. Girs rahbarlik qilar edi. U ham Aleksandr III ga o'xshab, German monarxiasini mustahkam va o'z reaksiya rejimi jihatidan Chor Rossiyasiga yaqin, deb hisoblardi. Girs podshoga qilgan shaxsiy dokladlarida tashqi siyosatga doir asosiy masalalar to'g'risida diplomat sifatida hech qanday prinsipal holat yuz bermadi.

¹ Lafasov, Jo'rayev. Jahon tarixi. T.: "Sharq". 2009. 112-bet.

2.3.Rus yapon urushi va uning oqibatlari

XIX asr oxiri — XX asr boshida bo'lgan jahon iqtisodiy inqirozi sanoatning rivojlanishini tezlashtirdi va shu bilan birga barcha rivojlangan davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni misli ko'rilmagan darajada kuchaytirdi. Barcha rivojlangan mamlakatlarning inqorozdan chikishni o'zlay, mustamlakalar bosib olishni inqirozni tugatishning hal qiluvchi vositasi deb bilganliklari sababli, yangi mustamlakalar ilk qo'lga kiritish uchun kurashni kuchaytirib yubordilar. Ammo kapitalistlar o'rtasida begona territoriyalarni bosib olish uchun kurash XX asr boshlarida shubxasiz imperialistik urushlarni keltirib chiqarardi. Shuning uchun u yoki bu davlatning yangi mustamlakalar bosib olishi imperialistlar o'rtasida taqsimlab Olingan territoriyalarni qaytadan bo'lish uchun kurashga aylanadi.

Harbiy to'qnashuvlar navbatma-navbat to'xtamasdan davom etib, ulardan eng yiriklari quyidagilar: 1894—1895 yillardagi yapon-xitoy urushi, 1898—1899 yillardagi amerika-isan urushi va uning Fransiya bosib olishi, 1899—1902 yillardagi angloburlar urushi, 1900—1901 yillarda Xitoyga qarshi imperialistik davlatlarning eng yirik intervensiyasi va nihoyatda 1904— 1905 yillardagi rus-yapon urushi edi.

Ayniqsa tinch okeani havzasi xususida va dastavval Xitoy territoriyasi xususida imperialistik davlatlar o'rtasida keskin kurash boshlandi. Barcha yirik imperialistik davlatlar — Yaponiya, AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya Xitoyning territoriyasini taqsimlab olish uchun kurash boshladilar. Bu kurashda chor Rossiyasi ham aktiv rol o'ynadi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yapon harbiylari va burjuaziyasi Xitoyga qarshi keng agressiyaning tashabbuskori bo'lib chiqdilar. 1894—1895 yillardayok, yapon imperialistlari Xitoyning iqtisodiy va harbiy kuchsizligidan foydalanib, Xitoyga qarshi urush boshlab yubordilar, unga haddan tashqari og'ir bo'ldi sulh shartlarini quydilar. Xitoy xukmdorlari harbiy kuchlar Tazyiqi ostida uzining mag'lubiyatini tan olishga va yapon harbiylari tomonidan Tayvan orolining bosib olinishiga, Lyaodun yarim orolini Yaponiya tomonidan ijaraga olinishiga rozi

bo'lishga majbur bo'ldilar. Xitoy juda katta kontributsiya to'lashga va Koreyaning «mustaqilligini» tan olishga majbur bo'ldi.

Yapon imperialistlarining Xitoy ustidan g'alabasi va Simonoseki shahrida yaponlar tomonidan taqdim etilgan haddan tashqari og'ir sulh shartlariga imzo qo'yilishi, barcha mamlakatlarning imperialistlari o'rtasida juda qattiq kurashga olib keldi. Ular Xitoyni «himoya» qilib chiqdilar va Yaponiyani Lyaodunni ijaraga olishdan bosh tortishga majbur qildilar. Ular Xitoy hukumatining Yaponiyaga kontributsiya to'lashiga «yordam» berdilar. Ammo barcha eng yirik mamlakatlarning imperialistlari tomonidan Xitoyni bunday «himoya» qilish xitoy xalqiga juda qimmatga tushdi Angliya Xitoydan Veyxayvey territoriyasini «ijaraga» oldi va uning shimoliy qismida harbiy port qurdi. Germaniya ham xuddi shunday qildi, u Sindaoda harbiy port qurdi, Fransiya esa Guan-chjouvan ko'rfazida harbiy port qurdi.

AQSh 1899 yilda Filippinni bosib olgach, «ochiq eshiklar» siyosati va savdo uchun «baravar imkoniyatlar» siyosatini e'lon qilib, Xitoyga qarshi keng hujumni kuchaytirib yubordi. Ular bu siyosat bilan butun xitoy bozorini o'zlariga bo'ysundirishga umid bog'ladilar.

Chor Rossiyasi Uzoq Sharqda o'zining pozitsiyasini mustahkamlashdan manfaatdor bo'lganligi sababli 1895 yilgi yapon — xitoy shartnomasini o'zgartirilishining eng aktiv tarafdorlaridan biri bo'ldi. 1896 yilda Rossiya Xitoy bilan mudofaa ittifoqi to'g'risida deb atalgan shartnomaga va Manchjuriya territoriyasi orqali Xitoy-Sharqiy temir yo'li (KVJD) qurish to'g'risidagi shartnomaga qo'l qo'ydi. 1898 yilda chor hukumati Lyaodun yarim orolini ijaraga olish va Port-Arturda harbiy-dengiz bazasi qurish to'g'risida Xitoyning roziligini olishga erishdi.

Xitoy xalqiga nisbatan imperialistik davlatlarning jinoyatkorona siyosati marksistlar tomonidan qattiq qoralandi. «Yevropa hukumatlari birin-ketin Xitoy

yerlarini zo'r berib talashga, ya'ni «ijaragaolish» ga kirishdilarki, Xitoy bo'lib olinadi, degan ovozlari ko'tarilganligi bejiz emas»¹.

Imperialistik davlatlarning Xitoyga har tomonlama hujum qilishi, uning territoriyalarini bosib olishi, uni asoratli shartnomalar tuzishga majbur etishi, shuningdek, imperialistlar tomonidan xitoy mulklari ustidan mustamlakachilik rejimlarining o'rnatilishi xalq noroziligini tug'dirmasligi mumkin emas edi. Xitoy imperatorlik saroyining, uning ministrlarining xalqqa qarshi siyosati, ularning sotqinligi va chet el. imperialistlari oldida malaylik qilishi xalq tomonidan qo'zg'olonlar ko'tarilishiga asosiy sabab bo'ldi.

Xitoyda xalq noroziligining birinchi uchqunlari 1895—1896 yillarda bo'lib o'tdi. 1897—1899 yillarda Xitoyning ko'pgina rayonlarini qo'zg'olon qamrab oldi. 1900 yil yozida xitoy xalqining mustamlakachilik rejimi va sotqin chinovniklar hamda Xitoy xoinlariga qarshi qo'zg'oloni mamlakatning ko'pgina rayonlariga yoyildi. 1900 yil iyunida qo'zg'olonchilar hukumat qo'shinlari qarshiligini yengdilar, ularning bir qismi qo'zg'olonchilar tomoniga o'tdilar va qo'zg'olonchilar davlatning poytaxti — Pekinga bosib kirdilar. Chet el davlatlari bilan tuzilgan asoratli shart-iplarni bekor qilish va imperialistlar tomonidan Xitoyga qabul qildirilgan mustamlaka rejimlarini tugatish qo'zg'olonchilarning asosiy talablari edi.

Xitoyda ixetuaney (tinchlik va adolat uchun kurashuvchilar) qo'zg'oloni sifatida ma'lum bo'lgan va imperialistlar «bokserlar qo'zg'oloni» deb atagan xalq harakatining keng yoyilishi chet el davlatlarini qo'zg'olonchilarga qarshi vaqtincha blok tuzishga undadi. Qo'zg'olonni bostirishdan Xitoyga yanada kengroq intervensiya uyushtirish uchun foydalandilar. Bu mamlakatga Germaniya, Angliya, Fransiya, Yaponiya, AQSh, Avstro-Vengriya, Italiya va Rossianing harbiy kuchlari jo'natildi. Imperialistik davlatlarning qo'shinlari qo'zg'olonyai shafqatsizlik bilan bostirish to'g'risidagi buyruq oldilar. Germaniya imperatori Vilgelm II Xitoyga ko'patilayotgan soldatlar oldida so'zga chiqar ekan,

¹ Lafasov, Jo'rayev. Jahon tarixi. T.: "Sharq". 2009. 115-bet.

bir vaqtlar Yevropa xalqlari gunklar va ularning sardori Attilani eslab qolgan bo'lsa, xitoylar ham germanlarni shunday eslab qolish uchun ularni shafqatsizlik bilan jazolashga rasmiy ravishda soldatlarni da'vat etdi.

German soldatlari kayzer buyrug'ini juda aniqlik bilan bajardilar- Ammo nemis harbiylarining shafqatsizligi yolg'iz emas edi. Xitoy aholisini ingliz, fransuz, italyan va chor Rossiyasining qo'shinlari ham xuddi shunday shafqatsizlik bilan jazoladilar. Amerika dengizchilari o'zlarining Xitoy territoriyasiga, ayniqsa, Xitoyning poytaxti — Pekinga qilgan harbiy shaharlarini juda katta vahshiylik va misli ko'rilmagan talonchilik bilan nishonladilar.

Qo'zg'olonchilar tish-tirnog'igacha qurollangan chet el internsptlariga qarshilik ko'rsata olmadilar, chunki ular uyushmagan yomon qurollangan edilar. Buning ustiga imperator saroyidagilar, ministrlar va Xitoyning feodal-burjua doiralari ham xalqqa qarshi turdilar. Bunday sharoitda ixetuaney harakati g'alaba qozonishi mumkin emas edi.

Butun dunyo burjua matbuoti xitoy xalqiga qarshi keng kompaniyani avj oldirib yubordi. Burjua gazetlari Xitoyga yuborildi imperialistik qo'shinlar «sivilizatorlik missiyasini» bajarmoqda, «xitoy xalqiga madaniyat» olib bormoqda deb, chinqirib jar soldilar.

Burjua matbuotining bu iflos ig'volariga qarshi, xalq boshchiligidagi rus sotsial-demokratlari juda keskinlik bilan xitoy xalqini himoya qilib chiqdi. «Iskra» gazetasining birinchi nomerida bosilib chiqmas «Xitoy urushi» maqolasida barcha burjua davlatlari hukumatlarining go'yoki ular Xitoy bilan sira ham urush olib borayotgani yo'q, balki faqat qonuniy hukumatga mamlakatdagi tartibni tiklashga yordam bermoqdalar, degan aldamchiliklarini fosh qilib shunday deb yozgan edi: «Urush e'lon qilingani yo'q, lekin bundan ahvol hech bir o'zgarmaydi, chunki baribir urush olib borilmoqda. Xo'sh, xitoylarning yevropaliklarga hujumi, inglizlar, fransuzlar, nemislar, ruslar, yaponlar va boshqalar juda zo'r berib bostirayotgan bu isyon nimadan kelib chiqdi? Urush tarafdorlari: «Sariq irqning oq irqqa bo'lgan dushmanligi»dan, «Xitoylarning Yevropa madaniyatini va sivilizatsiyasini yomon ko'rganlari»dan kelib chiqdi, deb ishontirmoqchi

bo'lmoqdalar. Ha, xitoylar, haqiqatan, yevropaliklarni yomon ko'radilar, ammo ular qaysi yevropaliklarni nima uchun yomon ko'radilar. Xitoylar Yevropa xalqlarini yomon ko'rmaydilar, ular bilan xitoylar o'rtasida to'qnashuvlar bo'lgani yo'q, balki Yevropa kapitalistlarini va kapitalistlarga itoat qiluvchi Yevropa hukumatlarini yomon ko'radilar. Xitoyga faqat tekin foyda olish uchun kelgan kishilarni, o'zlarining maqtalgan sivilizatsiyasidan faqat aldash, talash, jabr-zulm qilish uchun foydalangan kishilarni, xalqni zaharlaydigan afyun savdosi huquqi uchun Xitoy bilan urushlar olib borgan kishilarni (Angliya bilan Fransiyaning 1856 yilda Xitoyga qarshi olib borgan urushi), talonchilik siyosatini, xristian dinini tarqatish safsatasi bilan niqoblangan munofiqlarni xitoylar yomon ko'rmasligi mumkinmidi?»

Rus inqilobchilari tomonidan Xitoy xalqini bunday jasurlik bilan himoya qilish juda katta ahamiyatga, ega bo'ldi, chunki, u xalqlarni internatsional platformada birlashtirdi va imperialistlarning makkorona planlariga qarama-qarshi qo'yildi.

Ammo Xitoy xalqiga nisbatan imperialistik davlatlarning jinoiy planlarini amalga oshirilishiga xalaqit berib bo'lmadi. 1901 yil sentabrida eng yirik imperialistik davlatlar Xitoyga yangi asoratli shartnomani majburan qabul qildirdilar. Mamlakatda chet el imperialistlariga qaram bo'lgan imperatorlik hokimiyati saqlanib qoldi va mustamlakachilik rejimi yanada kuchaydi. Xitoy xalqi chet el hukumatlariga go'yoki xalq qo'zg'oloni vaqtida yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash uchun deb atalgan va chet el hukumatlari tomonidan majburan belgilangan juda katta kontributsiya to'lashi kerak edi. Imperialistlar tomonidan majburan qabul qildirilgan shartnoma xitoy xalqining milliy g'ururini kamsitar, Xitoyni imperialistik davlatlarning mustamlakasi qilib qo'yar edi. Bu haqda shunday deb yozgan edi: «Germaniya - Rossiya - Qo'shma Shtatlar - Yaponiya Angliya-Fransiya hammalari bir bo'lib Xitoyni bo'ladilar». Ammo shartnomada ko'pgina davlatlarning imzosi bo'lishiga qarama-qarshi, imperialistlar o'rtasida hamjihatlik yo'q edi. Imperilastik davlatlar Xitoyga asoratli shartlarni majburan qoplanar ekanlar, ularning har qaysisi o'ziga

ko'proq imtiyoz folishga va Xitoy territoriyasidan o'zlariga ko'proq bo'lak ajralmas olishni xohlar edilar.

1901 yilda Xitoydagi ozodlik harakati bostirilgandan keyin Kirsiya va Manchjuriya uchun imperialistik davlatlar o'rtasida yanada qizib ketdi. Yapon imperializmi, bir tomondan, qator keskin ravishda Koreyani to'liq va bo'linmagan holda o'ziga to'ldirishga muvaffaq bo'ldi, ikkinchi tomondan esa u Manchda o'z huquqlarini kengaytirishga da'vogar bo'ldi. AQSh va Manchjuriyada o'z pozitsiyalarini mustahkamlashni talab qilgan, u yerdan o'zlarining imperialistik raqobatchilarini siqib chiqarish uchun bu rayonlarda o'z tovarlarini erkin olib kirishga chiqish uchun harakat qildi. Chor Rossiyasi Manchjuriya va Koreya Yaponiya bilan AQSh ning asosiy raqiblari edi. Chor hukumatining rus burjuaziyasi bu rayonda o'zlarining imtiyozlarini hech kim bo'lishni istamas edilar¹.

Angliyaning Xitoyda g'arazli maqsadlari bo'lganligi va u yerda ruslar ta'sirining kuchayishini istamaganligi uchun, u bu kurashi aralashdi. Ingliz imperialistlari Chor Rossiyasini o'zlari ko'p yanada xavfliroq raqobatchi deb hisoblab, Xitoy territoriyasini taqsimlab olish uchun kurashda Yaponiyani qo'llab-quvvatladi, Fransuz hukumati o'zining ittifoqchisi sifatida Rossiya manfaatlari bilan hisoblashib, chor hukumati tomoniga og'ib ketdi. German imperializmi esa Rossiyaning e'tiborini Yevropadagi YShlardan chalg'itishni istab, shuningdek, rus hukumatini Fran-spya bilan janjallashtirib qo'yishni istab, U Angliya bilan bir-Galikda, chorizmni Uzoq Sharqda ekspansiya uyushtirishga undardi.

Eng yirik imperialistik davlatlarning Xitoy territoriyasini ochiqdan-ochiq bosib olish siyosati shubhasiz ular o'rtasidagi kurashning kuchayishiga olib keldi. Har bir davlat Xitoydan u yoki bu territoriyani bosib olishnigina istab qolmay, balki shu bilan birga o'zlarining imperialistik raqiblarini kuchsizlantirishga ham intildilar. Ana shu nizo va raqobatlar natijasida Uzoq Sharq va Tinch okeani rayonlarini bo'lib olish uchun davlatlarning bloki va ittifoqlari tuzildi va

¹ Lafasov, Jo'rayev. Jahon tarixi. T.: "Sharq". 2009. 117-bet.

mustahkamlana bordi. 1902 yilgi anglo-yapon shartnomasi bunday siyosatning yorqin ko'ri-nishi bo'lib, u Uzoq Sharqdagi ingliz-yapon munosabatlarini vaqtincha tartibga solibgina qolmasdan, balki u bu davlatlarning Xitoy va chor Rossiyasiga qarshi bitishuvi ham edi.

Angliya Markaziy va Janubiy Xitoyda o'z pozitsiyalarini mustahkamlagach, Shimoliy Xitoy rayonlarida chor Rossiyasi ta'sirining yoyilishini istamadi. Bu yerda rus hukumati hammadan ham ko'proq Yaponiya bilan to'qnashganligidan, ingliz burjuaziyasi o'ziga ma'lum darajada qaram bo'lgan Yaponiyani qo'llab-quvvatladi va rus kapitalistlari va pomeschiklarining da'volariga keskin qarshi chiqdi.

Yapon imperializmi, o'zining xarakteri va xususiyati jihatidan rus «harbiy-feodal imperializmi» bilan bir tipda bo'lib, o'zgalarning territoriyalarini bosib olishda eski mustamlakachilik davlatlaridan ancha orqada qolgan bo'lsa, XIX asr oxiri va XX asr boshida Yaponiyani qudratli mustamlaka imperiyasiga aylantirishning nihoyatda katta programmasini amalga oshirishni belgiladi. Yapon imperialistlari va ularning harbiy to'dalari «Osiyo osiyoliklar uchun» degan, amalda esa «Osiyo Yaponiya uchun» degan ma'noni bildiruvchi shior ostida o'z siyosatlarini olib borar ekanlar, o'z oldilariga Koreya, Manchjuriya, Mongoliyani egallashni, Xitoyda hamma hal qiluvchi pozitsiyalarni egallash, u yerdan o'zlarining imperialistik raqobatchilarini siqib chiqarishni maqsad qilib qo'ydilar. Yaponiyaning planida keyingi perspektivada — Rossiyaning Uzoq Sharqdan quvib chiqarish va Qamchatka, Yequtiston, Primore va Amur bo'yini bosib olish kabilar ham kirardi. Yaponiya imperialistlari Angliya, Fransiya, Gollandiya va AQSh ga qarashli bo'lgan Osiyodagi mustamlaka mulklarini ham o'z qo'llariga olishga intilardi.

Yapon hukumati o'z planlarini amalga oshirish uchun keng harbiy programmani ishlab chiqdi va turmushga tatbiq qildi. 1903 yil oxirida harbiy qurilish sohasidagi bu programma tugalla-nishi kerak edi.

Chorizm, rus pomeschiklari va burjuaziyasi manfaatlarini himoya qilib, boshqa imperialistik davlatlarga nisbatan kam bo'lmagan agressiv kayfiyatda edi,

u imperialistik davlatlardan birortasi uchun ham o'z pozitsiyalaridan qaytishni istamasdi. KVJD (Xitoy-Sharqiy temir yo'li) ning tezdik bilan qurilishi Shimoliy Manchjuriyada Rossiya mavqeini mustahkamlardi. Harbiydan Port-Arturgacha temir yo'l tarmog'ining qurilishi va Port-Arturda harbiy-dengiz bazasining yaratilishi chorizmning butun Shimoliy Xitoyda o'z hukmronligini o'rnatishi uchun keng imkoniyatlar ochib berardi. Chor hukumati Koreyadagi o'z pozitsiyalarini ham yo'qotishni istamaydi. 1901 —1902 yillardagi rus-xitoy muzo-koralari vaqtida chor Rossiyasi Manchjuriyadagi o'z manfaatlarini mustahkamlashga erishdi. Xuddi shu vaqtda Nikolay II bilan yaqindan aloqada bo'lgan Bezobrazov boshchiligidagi bir guruh uddaburonlar Xitoy hukumati bilan xususiy kelishuv yo'li orqali Yalu va Tumini daryolari havzasida o'rmonchilik konsessiyasini olishga erishdilar. Konsessiya maydoni Xitoy-Koreya va Koreya- Rossiya chegaralariga bevosita qo'shilib ketar va Koreya ko'rfazidan Yapon dengizigacha 800 km masofaga cho'zilib ketgan edi. Bu yerga konsessiyani qo'riqlovchilar niqobi ostida rus soldatlari jo'natilganligi sababli, bu territoriya amalda rus hukumating mulkiga aylanib qolgan edi.

Yaponiya bilan chor Rossiyasi o'rtasidagi munosabatlar tobora moshlasha bordi. Shu bilan bir qatorda undan bevosita manfaatlarini istagan boshqa imperialistik davlatlar o'zlarining g'animislik siyosatlari bilan rus-yapon konfliktini g'arazgo'ylik maqsadida kuchaytirdilar.

Rossiyani kuchsizlantirishga va uni chet el davlatlariga yanada janiroq qaram qilib qo'yishga intilib, Angliya va AQSh Yaponiyani qullab-quvvatlab, uni Rossiya bilan urushishga har tomonlama Rndadilar. Amerika prezidenti Teodor Ruzvelt ochiqdan-ochiq Yponiya bizning o'yinimizni o'ynayapti»,— deb aytgan edi.

1901 yil o'rtalarida Yaponiyada general Katsura boshchiligidagi reaksionerlar hokimiyat tepasiga keldilar. Yapon militaristlari urushga zo'r berib tayyorgarlik ko'ra boshladilar.Yapon harbiylari Xitoyda Yaponiyaning bosqinchilik siyosatidagi asosiy raqib Rossiya ekanligini to'la tushungan holda, o'zlarining agressiyalarini niqoblash maqsadida Peterburgga diplomatik missiya

jo'natdilar. Yapon missiyasi Yaponiya tomonidan tayyorlanayotgan urushni niqoblashnigina maqsad qilib qo'yganligi sababli, Peterburgdagi muzokaralar, rus va yapon tashqi ishlar ministrligi-Vazirining undan keyingi takliflarni ayirboshlashlari ham, Yaponiya bilan Rossiya o'rtasidagi keskin munosabatlarni yumshatishga kela olmas edi. Generallar Yamagata va Katsura boshchiligidagi yapon harbiylari yapon armiyasini qaytadan tuzish va hozirgi zamon qurollari bilan qurollantirishni tugallagan. Chunki Rossiyaga tobora ko'proq qabul qilish mumkin bo'lmagan talablar qo'ya boshladi¹.

Butun Koreya ustidan Yaponiyaning hal qiluvchi rolini tan olish o'rtasidagi masala dastavval rus-yapon muzokaralaridagi asosiy masala edi. Ruslar tomoni Susima bo'g'ozi orqali rus harbiy kemalarining erkin, bema'lol yurish huquqinigina himoya qildi va Koreyada yapon qo'shinlari cheklangan miqdorda bo'lishiga va uning territoriyasi strategik maqsadlarda ishlatilmasligiga intildilar. Shunday qilib, chor Rossiyasi Yaponiyaning Koreyada hukmronligini olish bilan birga, o'zi ham ayrim huquqlarining qabul qildi. Yapon hukumati ruslarning bu takliflariga rozi bo'lmadi. 1902 yil yozi oxirlarida Yaponiya endilikda Rossiyadan uzining Koreya ustidan to'la protektoratligini tan olishni talab qildi. Buning uchun esa u Rossiyaning Manchjuriyada KVJD zonasidagina, shunda ham uni qo'riqlash ma'nosida, erkin harakat qilishni tan olishga rozilik bildirdi. 1903 yil oxirida esa yapon tashqi ishlar ministrligi Rossiyadan Yaponiyaning Koreya ustidan protektoratligini tan olishnigina emas, balki shu bilan birga Janubiy Manchjuriyaga yapon kapitalining kirishiga, va shuningdek, ana shu rayonlarda Yaponiyaning temir yo'llar qurishiga rozi bo'lishini talab qildi.

1903 yil oxirida yapon diplomatlarining Rossiya bilan qanday tilda so'zlashganlarini oddiygina izohlash mumkin: Yaponiya o'zini harbiy harakatlarga yetarli darajada yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va bundan keyin ham urushni cho'zaverish uning foydasiga hal bo'lmaydi, deb hisobladi. Yapon hukumati o'z mamlakatini ham ichki, ham tashqi ahvolini aniq hisobga olgan edi.

¹ Lafasov, Jo'rayev. Jahon tarixi. T.: "Sharq". 2009. 118-bet.

Yaponiyaning iqtisodiy potentsiali o'sdi, mamlakatda endilikda juda ko'p miqdorda har xil sanoat buyumlari ishlab chiqarilar edi, temir yo'l tarmoqlari o'sdi, dengiz flotining tonnaji keskin ko'paydi, qishloq xo'jaligining unumdorligi ortdi. XIX asrning 90-yilla-1yarmida yapon ekonomikasi ayniqsa tezlik bilan o'sdi, o'tmishda ham sanoat qoloqligiga barham berildi. XX asr boshida mamlakatda monopoliyalar va banklarning hissasi ancha ortdi. Mamlakatda rahbarlik ashaddiy militaristlar qo'lida to'plangan bo'lib, ular uchun barcha tortishuvlar va konfliktlarning birdan-bir hal qiluvchi usuli urush edi. Bu harbiy to'dalar kontinentga tushirish uchun yetarli miqdorda desant qo'shinlar (13 diviziya), ko'p sonli artilleriya (1000 dan ortiq to'p)ni tayyorladi, qudratli flotni tuzdi. Yapon armiyasi, floti soni, va o'zining texnikaviy tayyorgarligi jihatidan Uzoq Sharqdagi rus qurolli kuchlaridan ustun bo'ldi.

Tashqi siyosiy vaziyat ham Yaponiya uchun juda qulay edi. Uni Angliya va AQSh har tomonlama qo'llab-quvvatlar edi.

Yapon general shtabi tomonidan yaratilgan keng va har tomonlama tarqalgan josuslik tarmoqlari orqali Rossiya to'g'risida Yaponiyaga kelib tushayotgan juda ko'p ma'lumotlar chorizm Uzoq Sharqda urushga tayyor emasligini va agar u urushga tortilsa, shubhasiz, mag'lubiyatga uchrashini yaqqol ko'rsatdi.

Yapon hukumati bu holatlarning hammasini hisbbga olgan edi va shunday yo'l olib bordiki, u tez vaqt ichida urushni boshlab yuborishga olib kelar edi.

Chor hukumati, aksincha, Rossiyaning iqtisodiy va harbiy potensialini to'g'ri baholashga, mamlakatning ichki siyosiy vaziyatini xalqaro maydonda kuchlar joylashuvini hisobga olishga, o'z dushmanini baholashga ojizlik qildi.

Urush arafasida hukumat boshida turgan podsho kamarilyasi (saroy a'yonlari) orasida Yaponiyaning kuchsiz dushman va Rossiya uni «telpagi bilanoq uloqtirib tashlaydi», deb hisoblaydigan vakillar mavjud edi. Ular yapon hukumati Rossiyaga qarshi urushishga botina olmaydi va ruslarning barcha talablariga rozilik beradi, deb hisobladilar. Bu gruppada yana Yaponiya bilan urush kichik va g'alabali» urush bo'ladi va u Rossiyaning ichki ahvoli va yetilib

kelayotgan inqilobyaga qarshi kurash olib borish zarurati nuqtai nazaridan ham Roosiya uchun foydali bo'ladi, degan qarash ham mavjud edi. Bu gruppaga statssekretar Bezobrazov, ichki ishlar ministri Pleve, podshoning Uzoq Sharqdagi noibi Alekse-yevlar kirardi. Bu arboblarni podsho Nikolay II ham qo'llab-quvvatlardi.

Moliya ministri Vitte va tashqi ishlar ministri Lamzdorf (iipchiligida podsho hukumatidagi ikkinchi gruppirovka ham Uzoq Sharqda keng anneksiyachilik planlari tarafdori edilar, ammo pchki va xalqaro vaziyatni birmuncha to'g'ri hisobga olib, ular rus-yapon munosabatlarini vaqtincha keokinlashtirmaslikni taklif qildilar. Bu grupp Xitoyni iqtisodiy jihatdan bosib olishni yanada kuchaytirishni talab qildi. Shuningdek, Yaponiya bilan to'qnashuviga borishdan oldin, ular transsibir temir yo'li (jumladan, Baykal uchasi) va Port-Artur va uning atrofidagi barcha harbiy istehkomlarning qurilishini tugallashni taklif qildilar¹.

Port-Artur qal'asi quruqlikdan ham juda bo'sh mustahkamlangan edi. Masalan, shimoldan krepostga borish yo'lini bekitib qo'yadigan Szinchjou bo'yini qurilishi tugallanmagan edi. Ko'pgina fortlarda (qal'alarda) uzoqqa otuvchi to'plar yetishmas edi, borlari esa yapon harbiy kemalarida o'rnatilgan to'plarga nisbatan iprmuncha yaqin masofaga otar edi. Uzoq Sharqda ozgina qo'shinlar hammasi bo'lib 100 mingga yaqin qo'shin to'plangan bo'lib, ular har xil joylarga tarqatib tashlangan edi, ya'ni ular Primore o'lkasi, Manchjuriya va Kvantun yarim orolida joylashgan edi. Bu qo'shinlar haqiqatda yaponlar desantining tushishiga qarshilik ko'rsata olmas edilar. Rus tinch okean eskadrasi bir qator yapgi, takomillashgan kemalarga ega bo'lsada, ammo ular har xil portlarga: Port-Artur, Chemulpo, Vladivostok va hatto Shan-xapda sohib yuborilgan edi.

Ayni shu vaqtda esa yapon armiyasi yetarli ravishda yaxshi tayyor-llngan ofitser kadrlarga ega edi, uning oliy komanda sostavi)sa keyingi urushlar, masalan, 1870—1871 yillardagi fran-suz-pruss va 1877—1878 yillardagi rus-turk urushlari tajribalarini chuqur o'rgangan edi, rus ofitser korpusi ko'pchiligining

¹ Yangi tarix. Toshkent. 2008 yil. 99-bet.

tayyorgarligi juda bo'sh edi, uning oliy komandirlari esa, odatda, O'rta Osiyoni bosib olish uchun bo'lgan jaiglarda qo'lga kiritilgan tajribalardangina foydalanar edilar. Bularning hammasi o'sha davrdagi satirik jurnallarda rus soldatini arslon boshi bilan, ofitserini eshak boshi bilan, gsneralini esa boshsiz qilib rasmga olishga aso's bo'lgan edi.

Rus armiyasining qurollanishi yapon armiyasining qurollani-shidan ancha yomon edi. Artilleriya, patronlar yetishmasdi. Armiyani qurol-aslahalar va oziq-ovqatlar bilan ta'minlash yo'lga qo'yilmagan edi.

Rus armiyasining texnik jihatdan qoloqligini avvalo Rossiyaning iqtisodiy va siyosiy qoloqligi bilangina izohlash mumkin edi.

Ammo chirigan podsho saroy a'yonlari bularning hammasini tan olishni istamas edilar va yapon reaksiyon to'dalarining urushni boshlab yuborishlari uchun ketma-ket bahona izlashlariga yo'l berar edilar.

Yapon militaristlari, Rossiya bilan urush boshlab yubormoqchi bo'lib, 1903 yil 31 dekabrda rus hukumatiga o'zlarining yangi talablarini taqdim qildilar. Endilikda Koreya ustidan to'la yapon protektoratligi o'rnatishga Rossiyaning roziligini olish va Manchjuriyada Yaponiyaning qisman huquqlarini Rossiya tomonidan tan olinishi Yaponiya uchun kifoya qilmay qoldi. U Koreyani to'la tasarrufiga olish va Manchjuriyada o'zining Rossiya bilan teng huquqli bo'lishini tan olishni talab qildi.

Rossiya yana yonbosishga rozi bo'ldi. 1904 yil 22 yanvarda Yaponiyaning talabiga berilgan javob Tokioga yuborildi, ammo yapon te» legrafi uni rus elchisi baron Rozenga 25 yanvargacha maxsus yetka-zib bermadi.

23 yanvarda yapon imperatori Rossiyaga qarshi urush harakatlarini boshlash to'g'risida armiyaga yashirin farmoyish berdi 24 yanvarda Yaponiya «muzokaralarning foydasizligi» to'g'risida xabar berdi va Rossiya bilan diplomatik aloqalarni uzdi. Xuddi shu kuni Admiral Togo qo'mondonligidagi yapon floti rus kemalariga hujum qilish to'g'risida buyruq oldi.

Port-Arturga Yaponiya bilan diplomatik aloqalar uzilganligi to'g'risida xabar yetib bormagan edi, rus flotining qo'mondoni admiral Stark esa 26 yanvar

ertalab hamma yapon rezidentlari-ning ingliz kemalarida portdan chiqib ketganligi faktiga hech qanaqa e'tibor ham bermadi. Admiral Starkning beparvoligi rus kemalari uchun qimmatga tushdi, ular hatto ichki gavanga ham olib kirilmagan, balki hech qanday qo'riqlanmagan holda, tashqaridagi reydda turar edi. Portdagi hamma ofitserlar sostavi 26 yanvarda shaharga admiral rafiqasining tug'ilgan kuniga taklif qilingan edi. Xuddi shu vaqtda yapon eskadrasi Port-Arturga kelib qoldi. 26 yanvardan 27 yanvarga o'tar kechasi yatson minonosetslari hech qanday qarshiliksiz rus kemalariga yaqin masofaga yetib keldilar va rus kemalari projektorlaridan nishon olib 16 ta minani xash-la^ilar. Yaponlarning hujumi muvaffaqiyatli chiqdi bir necha mina mo'ljalga tegdi. «Retvizan» va «Sesarevich» bronenosetslari, shuningdek, «Pallada» kreyseri safdan chiqarildi. 27 yanvarda boshqa yapon kemalari Chemulpoga yaqinlashdi va rus kreyseri «Varyag» hamda «Korrets» kanoner lodkasi bilan jang boshlab yubordi. Rus dengizchilari tengsiz, ammo qahramonona jangda dushman xalqasini yorib o'tish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklari uchun o'zlarining yonib turgan kemalarini cho'ktirib yubordilar, ammo uni dushmanga bermadilar. 27-yanvar ertalab yapon zskadrasining to'la sostavi Port-Artur yonida paydo bo'ldi va reydda turgan rus kemalari va krepostga hujum qilmoqchi bo'ldi. Ammo yapon minonosetslari-ning rus kemalariga kechasi qilgan bosqinchilik hujumi urushning birinchi kuniyoq rus flotiga og'ir talofot yetkazgan bo'lsada yaponlar Port-Arturni olishga muvaffaq bo'la olmadilar. Urushning birinchi bosqichida Yaponiya kabi chor Rossiyasi ham u:shning strategik planlarini, asosan, harbiy-dengiz kuchlari harakatlarini hisobga olib tuzgan edi. Yapon qo'mondonligi eng avvalo Uzoq Sharqdagi rus harbiy flotini yo'q qilish va dengiz prqali Port-Artur krepostini bosib olishga umid qilgan edi.

Rus general shtabi ham rus floti oldiga Yaponiyaning harbiy-dengiz kuchlarini yo'q qilish, uning barcha desant qo'shinlarini suvga cho'ktirish va shu bilan o'zi uchun urushni muvaffaqiyatli hal qilish vazifasini qo'ygan edi.

Admiral Togo, o'z planini bajara borib, Port-Arturdagi rus ksmalariga bir necha marta hujum qildi. Ammo yapon qurolli kuchlari dengizdan turib krepostni bosib olishga muvaffaq bo'la olmadilar, ular krepostni qurshab olishgagina

muvaffaq bo'ldi-lar, xolos. Iste'dodsiz admiral Starke o'rniga tayinlangan Uzoq Sharq n-kadrasining qo'mondoni vitse-admiral S. O. Makarov flot oldiga eng avvalo Port-Arturdagi yapon blokadasini yorib o'tish va kengligiga chiqqandan so'ng, yapon flotini to'liq tor-mor Deltirish vazifasini qo'ydi. S. O. Makarov yirik dengiz sarkardasi va haqiqiy vatanparvar edi. U Port-Arturda va harbiy kemalarda tartib o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Ammo 1904 yil 31 martda rus eskadrayeining Port-Arturdan tashqariga dengizga reydgacha chiqish vaqtida «Petropavlovsk» flagman bronenosetsi yapon kemasiga tegib ketib portladi va suvga cho'kib ketdi. Makarov halok bo'ldi. U bilan birgalikda bronenosets komandasining ko'pchiligi, hamda mashhur rassom — batalist Vereshchagin ham halok bo'ldi¹.

Yaponiyaga, urushga ancha tayyor bo'lganligi sababli, tezlik bilan uning quruqlikdagi desant qo'shinlarini materikka tushira boshladi. Rus harbiy floti juda katta talofot ko'rdi va, Port-Artur buxtasida qamalib qolib, yapon armiyasining quruqlikka chiqib olishiga qarshilik ko'rsata olmadi.

Yaponiya o'z armiyasini Koreyaga tushirayotganligiga qaramay M.shchjuriya, Kvantun va Primoreda to'plangan quruqlikdagi rus qo'shinlari Koreyaga tomon harakat qilmadilar. Rus qo'mondonligi frontning bu uchastkasida Yaponiyaga zarba berish uchun Koreyani Manchjuriyadan ajratib turgan Yalu daryosi bo'yida joylashgan, Sharqiy otryad» deb atalgan, 18 ming kishini ajratdi xolos. Otryadning komandiri qilib general Zasulich tayinlandi. Rus generallarining bunday strategiyasining oqibatlari tezda yaqqol ko'rindi. 1904 yil aprel o'rtalarida general Kuroki qo'mondonligidagi birinchi yapon armiyasi qarshilikka uchramasdan Koreyani bosib oldi, Yalu daryosiga kelib qoldi. Son jihatidan «o'ng sharqiy otryadga» nisbatan 3 martadan oshiqroq bo'lganligi bu Tyurenchenda bo'lgan jangda rus qo'shinlarini og'ir mag'lubiyatga uchratdi. Zasulich yomon komandir bo'lib chiqdi va faqat general-Kuropatkin qo'yilgan bo'lib Kuropatkin O'rta Osiyodagi yurishlari davomida ma'lum edi. Faqat qobiliyatli generallardan biri — Kondratenko Fokning bu ishiga aralashgach, Port-Artur atroflarini rus

¹ Lafasov, Jo'rayev. Jahon tarixi. T.: «Sharq». 2009. 120-bet.

armiyasi qo'lida saqlab qolishga va Volchi tog'i atrofidagi pozitsiyalarda 1904 yil iyulgacha turib berishga imkon tug'dirdi.

General Kuropatkin Lyaodun yarim orolida rus qo'shinlarini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash chorasini ko'rmadi. U ruslarning quruqlikdagi asosiy kuchlaridan Port-Artur ajratib tashlash xavfi tug'ilgan shiddatli jangda go'yoki, quruq kuzatuvchidek bo'lib qoldi. Qarbiy ministr Saxarovning Port-Artur izolyatsiya qilishning barcha oqibatlari ta'kidlangan va buning natijasida uning muqarrar taslim bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan xatni olgandan keyingina, Manchjuriya armiyasining bosh qo'mondoni Kuropatkin soni 33 ming kishilik kuchaytirilgan Shtakelberg korpusini rus qal'asiga yordam berishga yubordi. Ammo bu korpo'sni 2-yapon armiyasiga qarshi yuborar ekan, Kuropatkin unga «dushmanning katta kuchini iloji boricha o'ziga jalb qilish va shu bi-lan uning Kvantun yarim oroliga hujum qilayotgan armiyasini kuch-sizlantirishgag'ina» ko'rsatma berdi. Bunday direktiva olgan Shtakelberg korpusi Vafangou stansiyasi rayonigacha borgach, shu yerda to'xtab qoldi va dushmanni kuta boshladi. Ruslarga nisba-tan son jihatidan birmuncha ustun bo'lgan yapon qo'shinlari 1904 yil iyun o'rtalarida hujumga o'tdilar va, yon tomondan berilgan zarbalar bilan harakat qilib, jang oqibatida 3,5 mingga yaqin soldatidan ajralgan rus korpusini chekinishga majbur qildi.

Qamalda qolgan Port-Arturga quruqlikdan turib yordam be-rishga intilish barbod bo'lganligiga qaramasdan, halok bo'lgan S. O. Makarov o'rniga tayynlangan Port-Artur eskadrasining yangi qo'mondoni Vitgeft 1904 yil iyulida krepostdagi yaponlar bloka-dasini dengizdan turib yorib o'tishga harakat qildi. Ammo, u jur'atsiz va umidsizlik kayfiyatida bo'lganligi sababli, flot-ning harbiy operatsiyasiga muvaffaqiyatli rahbarlik qila olmadi va Port-Artur eskadrasini butunlay halok etdi.

Vladivostok va Port-Arturdan chiqqan rus kemalarining bir-galikda harakat qilishlarini va ularning bir-biri bilan uchra-shishini tashkil qila olmagan Vitgeft admiral Togoning yapon • eskadrasi bilan uchrashgach, o'zini yo'qotib qo'ydi, rus kemalari o'z holiga tashlab qo'yildi. Rus flotiga qarshi o't ochgan yaponlar, unga

qattiq talofat yetkazdi. «Sesarevich» flagman kemasining-kapitalistik supasida turgan Vitgeftning o'zi dushman snaryadidan halok bo'ldi. Flot qo'mondonining halok bo'lishi rus eskadrasi-ning to'la parokandaligiga olib keldi. Qolgan kemalarning bir qismi Port-Arturga qaytib keldi, ba'zilar esa neytral port-larga ketib qoldi. 1904 yilning iyulidagi bu jang Port-Artur eskadrasining to'liq halokatiga olib keldi u amalda endi yo'q edi, Yapon floti dengizda to'la hukmron bo'lib qoldi.

Yaponiya urushning har xil frontlarida ko'zga ko'rinarli yutuqarga erishgach, iloji boricha tezroq ruslarning Manchjur armiya Lyaodun yarim orolidan ajratib qo'yishga harakat qildi. 1904 yil avgust oyi boshlarida general Nogi qo'mondonligidagi 3-yapon armiyasi qal'a garnizonini taslim qilishga intilib, port-artur istehkomiga quruqlikdan turib shiddatli hujum qildi. U bevota Port-Artur devorlariga kelib qoldi, ammo rus soldatlari dengizchilari qahramonona qarshilik ko'rsatdilar va harbiy dengiz bazasining yaponlar tomonidan bosib olinishiga yo'l qo'ymadilar. Ayni shu vaqtda generallardan Kuroki, Oku va Nodzi qo'mondonligidagi 1, 2, va 4-yapon armiyasi Lyaoyan rayonida rus irmiyasi bilan yangi katta jang boshlab yubordilar. Rus qo'mon-donligi, bu yerda qurolli kuchlar soni jihatidan ancha ustun bo'lishiga qaramasdan bu jangda ham g'alabaga erisha olmadi. Lyaoyan yonida Kuropatkinda yapon armiyasiga nisbatan taxminan 3 ming kishi oshiq edi, ammo shunga qaramasdan, o'z qo'shinlariga chekinishga yana buyruq berdi. Lyaoyan jangida yaponlar 25 ming soldatdan ajradi, ruslarning talafoti esa 15—17 ming kishi atrofida bo'ldi. Lyaoyan yonida rus armiyasining g'alaba qozonishi uchun to'la imkoniyat bor edi jumladan, Kuroki qo'mondonligidagi 1-yapon armiyasini butunlay tor-mor qilish, uning qoldiqlarini, esa taslim bo'lishga majbur qilish mumkin edi. Faqat Kuropatkinning qat'iyatsizligi, uning yon tomondan bo'ladigan zarbadan doim qo'rqishi o'zining orqa tomonidan ajralib qolgan, 2-yapon armiyasi bilan aloqani butunlay yo'qotgan Kurokining mag'lub emas, balki g'olib bo'lib chiqishiga imkon berdi. Yapon qismlarini bir qancha uchastka-larda siqib borgan rus soldatlari rus generallarining xoinona va sharmandali ko'rsatmalari natijasida buyruqqa bo'ysunib, te-mir yo'l

bo'ylab, shimolga chekinishga majbur bo'ldilar. Shu sa-babli Manchjur armiyasi shtabidagi Italiya vakili Bardonno Lyaoyan yonidagi janglar vaqtida Kuropatkinning rahbarligiga baho berib quyidagicha yozganligi bejiz emas: «Butun Lyaoyan ope-ratsiyasi davomida rus armiyasining qo'mondoni biror marta ham voqealarga rahbarlik qilmadi. O'zi va o'ziga tobe kishilarga nisbatan har qanday ishonchni yo'qotib, u passiv ravishda dushman irodasiga bo'ysundi, va shunday qilib majbur bo'lmagani holda, o'zini yengilgan hisoblab jang maydonini tashlab chiqdi.»

Lyaoyandagi mag'lubiyat butun rus armiyasiga juda og'ir ta'sir ko'rsatdi. U eng, avvalo, Port-Arturni qutqazish, uning qamalini yerib o'tishdan umidini uzdi. Rus qo'shinlarining ketma-ket mag'lubiyati va chekinishi armiyada ham, armiyaning orqa tomonida ham mag'lubiyatga berilish kayfiyatini kuchaytirib yubordi. Rus qo'shinlari qo'mondonligida faqatgina bitta intilish va kayfiyat bor edi. Yapon armiyasining rus qo'shinlarini aylanib o'tishiga hamda o'rab olishiga imkon bermaslik kerak edi. Shu sababli, rus qo'mondonligi Lyaoyan yonidagi jangda mag'lubiyatga uchragach, o'z qo'shinlarini tezlik bilan Mukden tomoniga chekintira boshladi.

Lyaoyan yonidagi jangda kutilmaganda g'olib chiqqan yapon generallari chekinayotgan rus armiyasini ta'qib qilib bormadi. Yapon qo'shinlarining juda katta talafoti harbiy harakatlarni to'xta-tish, soldatlarga dam berish va rezervlar to'plashni taqozo etar-di. Bu ish bilan Kuropatkinning Manchjuriya armiyasiga qarshi harakat qilayotgan barcha yapon armiyasining bosh qo'mondoni mar-shal Oyyama boshchiligidagi yapon qo'mrondonligi shug'ullanadi. Yapon armiyasining shimolga tomon yurishining to'xtab qolishi endilik da Mukdenni qoldirib ketmoqchi bo'lgan va dushmanni Telin rayonida kutishni mo'ljallagan Kuropatkin o'z niyatini o'zgartirdi.

Rus armiyasi dushman tomonidan ta'qib qilinmagach, Mukden-dan uzoq bo'lmagan, Shaxz daryosi yonida to'xtadi. Bu yerda 1904 yil oktabr oyining yarmida rus va yapon armiyalari o'rtasida yangi katta jang bo'ldi. Ammo

tashabbuskori ruslar bo'lgan bu jang ham, Lyaoyan yonidagi talofotdan ancha ko'p bo'lgan yangi talofotga olib keldi.

Rus armiyasining qo'mondoni Kuropatkin Shaxe daryosi bo'yidagi jangning tarafdori bo'lgan emas edi va faqat siyosiy maqsadlar uchun Uzoq Sharqda g'alaba qilishni talab qilgan Peterburgning tazyiqi bilan. Rus qo'shinlarining hujum qilishiga rozilik bildirdi. Bu hujum operatsiyasi planini ishlab chiqishning tashabbuskorlari va ishtirokchilari Baltika bo'yi baronlari generallar Bilderling, Tizengauzen, Shtakelberg, Brinken va Meyn-dorf bo'lgan edi. Shu sababli rus soldatlari bu operatsiyani «baraney» operatsiyasi deb atadilar.

Chorizmga g'alaba keltirmagan Shaxe daryosi bo'yidagi jang Rossiyaning obro'siga yanada ko'proq putur yetkazdi. Uzoq Sharqdagi rus qo'mondonligi o'zini shu bilan tinchlantirdiki, u bu jang bilan Port-Arturning qulashini birmuncha kechiktirdi va 50 ming rus soldati va dengizchisi bo'lgan rus harbiy-dengiz bazasi va qal'asiga 1904 yil oktabr oyida Yaponiyaga shiddatli shturm boshlashi imkoniyatini bermadi¹.

1904 yil noyabr dekabr oylarida general Nogining yapon armiyasi krepostni bosib olishga intilib, Port-Arturga yangi, hujum uyushtirdi. Rusgarnizonining misli ko'rilmagan qahramonligiga qaramay, uning safi kamayib bordi, yaradorlar va kasallar soni kun sayin tobora ko'payib bordi. Ayni vaqtda Port-Arturga hujum qilgan yapon armiyasi yangi-yangi qo'shimcha kuchlar bilan orta bordi, Port-Arturdagi rus garnizonidagi urushga layoqatli bo'l. Soldatlar soni esa deyarli 30 ming kishigacha kamaydi. Shunga qaramasdan rus soldatlari va dengizchilari qal'ani qo'riqlashni davom etkazish va uni dushman qo'lga bermaslikka tayyor edilar. Ammo Port-Artur qal'asining qo'mondoni general Stessel, harbiy sovet qaroriga xilof ravishda, yapon qo'mondonligi bilan xoinona muzokara olib bordi va 1904 yil 20 dekabrda Port-Arturning taslim bo'lishi to'g'risidagi aktga imzo chekdi.

¹ Lafasov, Jo'rayev. Jahon tarixi. T.: "Sharq". 2009. 121-bet.

30 mingdan oshiq harbiy asir, 530 to'p, 35 ming miltiq o'q-dori hamda oziq-ovqat zapaslari Yaponiya qo'liga tushib qoldi. Port-Artur uchun bo'lgan janglarda 2841 rus armiyasi o'lgan va yarador bo'lganlar birgalikda 27 mingga yaqin yoqotdi .

Ammo Port-Arturni bosib olish ikkinchi imperialistik bosqinchi davlat kapitalistik Yaponiya uchun ham juda qimmatga tushdi. Rus soldatlari va dengizchilari tomonidan Port-Artur qalasiniy 11 oylik mardonavor himoya qilinishi, ularning qahrimonliklari yapon armiyasiga juda katta talafot keltirdi. Port-Artur uchun bo'lgan janglar vaqtida Yaponiya o'lganlar va yarador bo'lganlar bo'lib, 100 mingdan oshiq kishi yo'qotdi, ko'p sonli yapon kemalari suvga cho'ktirib yuborildi. Port-Artur ustidan g'alaba, bu g'alaba natijasida kelib chiqadigan barcha harbiy va Viyosiy afzalliklarga qaramasdan, yapon armiyasini ancha holsizlantitirdi, Yaponiyaning iqtisodiy ahvoli keskin yomonlashdi.

Rus armiyasining urushda o'zini yengilganligini tan olmasligi, Yaponiya uchun, ayniqsa, og'ir taassurot qoldirdi, rus armiyasi urush-pp davom ettirdi va yangi operatsiyalarga tayyorgarlik ko'rdi. Muk-den yonida 330 mingdan ko'proq rus armiyasi turar va Rossiyadan yangi-yangi rezervlar kelib qo'shilishda davom etardi. Shu bilan bir qatorda 1904 yil oktabr oyida Baltika harbiy portlarida turgan rus harbiy kemalaridan tuzilgan Tinch okean eskadrasi ham Uzoq Sharqqa jo'natilganligidan Yaponiya xabardor bo'ldi.

Uning izidan 3-rus otreadi ham tezlikda Uzoq Sharqqa tomon jo'natildi. Bu holatlarning hammasi Yaponiya o'zini AQSh va Angliya tomonidan qo'llab-quvvatlanilayotganligini his etayotgan bo'lsa ham unda Rossiya bilan urushda uzil-kesil g'alaba qilishda ishonchsizlik tug'dirdi.

Ammo agar Yaponiyaning g'alabasi uning iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlari doirasida turgan bo'lsa, chor Rossiyasining ahvolya undan ham og'ir edi. Samoderjaviyening Uzoq Sharqda sharmandali urush olib borishi mamlakatning ichki ahvolini qiyinlashtirib yubordi. 1905 yil yanvar oyida Rossiyada boshlangan xalq inqilobyasi birdaniga Rossiyadagi hukmron ekspluatatorlar sinflarning barcha

harbiy rejalarini ag`dar-to`ntar qilib yubordi. Inqilob omma imperialistik urush bilan kelisha olmas edp, ular Uzoq Sharqdagi urushga keskin qarshi chiqdilar.

Rossiyada urushga qarshi kayfiyatlarning keng to`lqini chorizshni tezlik bilan urushga qarshi kompaniya qatnashchilariga nisbatan chora-tadbir ko`rishga majbur etdi. Samoderjaviye mamlakatda urushga qarshi bo`lgan kayfiyatdagilarga qarshi va shu bilan bish galikda kuchayib kelayotgan inqilobyaga qarshi kurashni Yaponiya ustidan g`alaba qozonishning asosiy vositasi deb hisoblardi.

Shu maqsadda chor hukumati Kuropatkindan Mukdenga yaqinlashib qolgan yapon armiyasiga qarshi hujumga o`tishni talab qildi. 1905 yil fevral oyi boshida 330 ming kishidan oshiq bo`lgan Manchjuriya armiyasi, samoderjaviye buyrug`ini bajara borib, hujumga o`tdi. 5 armiyaga bo`lingan, 300 mingga yaqin yapon qo`shinlari rus armiyasiga qarshi harakat qildi¹.

Ikki haftadan oshiq davom etgan Mukden jangi, chor armiyasining yangi mag`lubiyati bilan tugadi. Yapon generallari boshqa bir qator janglarda bo`lganidek, busafar ham g`olib bo`lib chiqdilar. Bu ularning talantli harbiy sarkardalari bo`lganligidan yuz bergan emas, balki ko`pchilik rus generallarining layoqatsiz va qo`rqoqliklari oqibatida yuz berdi. Kuropatkin barcha rus armiyasining bosh qo`mondoni ham, 1, 2, va 3-armiyalarning qo`mon-donlari Linevich, Kaulbers va Bilderling ham hech qanday tashabbus ko`rsata olmadilar. Ularga Mukden operatsiyasi planining borishini amalda yapon qo`mondonligi diktovka qildi. Kuropatkin va uning yordamchilari qilishi mumkin bo`lgan va qilgan ishlari bu marshal Oyymaga Mukden ostonalarida rus armiyasining o`rab olinishi va Sedanning takrorlanishi imkoniyatini bermaganligidir. Ammo Mukden ostonalaridagi jang o`lganlar va asirga tushganlar bo`lib, rus armiyasiga 120 myngga yaqin kishiga tushdi. Yapon armiyasining talofoti 70 ming kishini tashkil qildi.

Manchjuriyada quruqlikdagi rus armiyasining yangi mag`lubiyati chorizm jang frontida g`alabani uyushtirishga va Yaponiya ustidan g`alaba qozonishga

¹ Lafasov, Jo`rayev. Jahon tarixi. T.: "Sharq". 2009. 122-bet.

qodir emasligini yana bir marta ko'rsatdi. Ammo, shunga qaramasdan, chor hukumati g'alaba qozonishga umid qilishni davom ettirdi. Chor hukumati Manchjuriyaga qo'shinlar borishini davom etkazdi va tez vaqt ichida uning soni yapon armiyasi, (II sonidan ancha oshib ketdi. Chorizm Telin rayonida rus qurolli kuchlarini to'plashni davom yetkazar ekan, admirallar Ro-stvenskiy va Nebogatovlar qo'mondonlik qilgan, Yaponiya qirg'oqlariga yaqinlashib qolgan rus eskadrasiga o'zining asosiy va to'rgi umidini bog'ladi. Ammo Baltikada mavjud bo'lgan rus «alaridan to'plangan bu eskadra yapon harbiy-dengiz flotiga Kirama-qarshi tura oladigan darajada yetarli kuchga ega emas edilar eskadrasida ham yaponlar flotidagi kabi miqdorda kreyser bor edi, ammo Yaponiyada minonosetslar Rossiyaga nisbatan bir necha baravar ko'p edi. Shu bilan birgalikda rus bronenosetslari qo'shinning sifati jihatidan yaponlar bronenosetsidan orqada edi: ular birmuncha sekin yurar, nisbatan yomon zirhga ega edi va ulara o'rnatilgan artilleriya ham o'zining sifati jihatidan orqada ». Admirallar Rojestvenskiy va Nebogatovlar qat'iyatsiz va ko'proq komandirlar edi, bu kishilar podsho Nikolay II ga yaqinlashganligi tufayligina yuqori lavozimlarga tayinlangan edilar.

1905 yil aprel oyida ikki rus eskadrasi ham juda uzoq yo'l sib, o'zaro qo'shildilar va Rojestvenskiyning umumiy qo'mondonligida yapon qirg'oqlaridagi Susima bo'g'ozi tomoniga, ularning kuchiga nisbatdan ustun bo'lgan yapon flotiga qarab yo'l oldi. Rojstchtsvenskiy o'z eskadrasini urush uchun noto'g'ri tashkil qilib, on floti tomonidan rus kemalarini o'rab olinishiga va ularga navbati bilan o'q uzishiga imkon berdi. 1905 yil may oyida Susima orolida rus eskadrasi bilan yapon floti o'rtasida bo'lgan jang, rus dengizchilarining qahramonligiga qaramasdan, rus klotining batamom mag'lubiyati bilan tugallandi. Juda ko'p rus kemalari cho'ktirib yuborildi va asirga olindi. Admiral Rojstchtsvenskiy bilan Nebogatov ham yaponlarga asir tushdi. Ko'plar rus askarlari yengiladi deb, kutgan edi, ammo hech kim uning mag'lubiyati bu qadar beomon mag'lubiyat bo'ladi deb o'ylamagan edi.

Harbiy halokati sabablarini ochib berib, shunday deb yozgan edi». «Endi eng so'nggi tavakkal ham puchga chiqdi. Buni hamma shunday bo'ladi deb Kutgan

edi, ammo hech kim ham rus flotining mag'lubiyati bu qadar beomon mag'lubiyat bo'ladi deb o'ylamagan edi.

Ko'z o'ngimizda bo'lib turgan narsa faqat harbiy mag'lubiyatgina bo'lib qolmay, balki samoderjaviyening harbiy jihatdan batamom halokatga uchrashidir»¹.

Rus armiyasining Mukden yonidagi mag'lubiyati va rus flotining tor-mor qilinishi chorizm uchun juda katta zarba bo'ldi va uning butun Uzoq Sharqdagi siyosatining to'la halokatini bildiradi. Samoderjaviye urush yordami bilan xalq ommasiga inqilobon kurashdan chalg'itishga umid bog'lagan edi, ammoch urush Rossiyada inqilobyani tezlashtiruvchi kuchli faktorga aylandi, Urushdan juda katta boylik to'plash umidida bo'lgan pometsya chiklar va kapitalistlar tomonidan chor hukumati rus-yapon urushining birinchi kunidanoq to'liq qo'llab-quvvatlandi. Pomeschchik«ular urush yengil bo'ladi va tez tugaydi va u juda ko'p foyda kel tiradi, shu jumladan Yaponiya to'lashi lozim bo'lgan harbiy kon« tributsiyaning ancha qismi bizga tegadi, deb umid qilgan edilar. Urushni qo'llab-quvvatlagan pomeschchiklar sinfi, yana shunga umpd bog'ladilarki, modomiki urush Xitoy territoriyasida olib borp lar ekan, ularga bu yerda xitoy xalqini talash hisobida ham boyish imkotsi beriladi.

Chorizmning harbiy siyosatini burjuaziya ham har tomonlamya qo'llab-quvvatladi. Rus kapitalistlari urush yordami bilan to varlar chiqaradigan, o'z kapitallarini joylashtiradig'an yangya bozorlarga ega bo'lishnigina istamasdan, balqi shu bilan birga-likda Uzoq Sharqdan o'z raqobatchilarini siqib chiqarishni istar-dilar. Rossiya fabrikantlari va zavod egalari urushny XX asD boshida mamla.katni qamrab olgan iqtisodiy krizisni qaytara digan o'ziga xos chora deb hisobladilar. Rus burjuaziyasi chorizm-ning kuchsiz tomonlari va cheklanganligini ko'rib turgan bo'lsa-dm shunga qaramasdan Yaponiyani Rossiyaga nisbatan ancha kuchsiz dei hisoblab, u samoderjaviyeni to'la qo'llab-quvvatladi. Rus burjuaziyasi urushni aktiv propaganda qilishga kirishdi va o'zn ning manfur

¹ Lafasov, Jo'rayev. Jahon tarixi. T.: "Sharq". 2009. 124-bet.

maqsadlari uchun urush harakatlari boshlab yuborilganligi uchun butun aybni Yaponiyaga to'nkab, chor hukumatini gunohsiz deb hisobladi. Burjua arboblari, xalqning milliy g'ururlari bilan sharmandalarcha o'ynashib, xalq ommasini mamlakatni tashqi dushmanlardan himoya qilishga chaqirdilar.

Jumladan, 1904 yil 23 fevralda Moskva zemstvolari o'z qarorlarida, Yaponiyani urush boshlashda ayblab, yozgan edilarki, rus xalqining irodasiga bog'liq bo'lmagan holda urush boshlandi», shu boisdan «u o'zining hayotini qurbon qilishi va vatanni dushmandan himoya qilishi lozim.». Boshqa zemstvolar va shaharlar дума majlisi, hamda zemstvo boshqarmalari va shaharlar dumalari ham xuddi shunday qarashni bayon qildilar. Burjuaziya P. Struve orqali xalqni urushni davom ettirishga da'vat etdi, uni umumxalq ishi deb hisobladi. Peterburgli studentlar unga shunday debjavob qaytardilar: «Siz kuyib-pishganchalpk urushni o'z mohiyati bilan umumxalqning ishi» deb bo'lmaydi... Urushni samoderjaviye hukumati va burjuaziya olib bormoqda». Qukumat va burjua gazetalari jang maydonida rus armiyasinipg qahramonliklari va yapon qo'shinlarining vahshiyliklarini o'z sa hifalarida yoritish bilan to'ldirib yubordilar. Pomeshchik vv burjuaziya sinflarini shovinistik propagandasi o'zlari tomon.

Sharqda chorizmning imperialistik siyosatini qo'llash to'grisida ochiqdan-ochiq vaysadilar. Chor armiyasining Manchjuriya Maydonlari va Port-Artur ketma-ket mag'lubiyatlari haqidagi xabarlar kela boshladi matbuotining shovinistik alangasi so'na boshladi burjua arboblari Uzoq Sharqda urushning borishidan o'z nomini bildirsa boshladilar. Ammo burjuaziyaning bu chorizmning Uzoq Sharq siyosatiga qo'shilmasligi bi balki uni amalga oshirish metodi va borishi bilan belgilanar edi. Chorizmning urushda mag'lubiyatga uchrashi, rus burjuaziyaning urush bilan bog'liq bo'lgan barcha planlarining I bo'lishigagina olib kelmasdan, balki mamlakatdagi inqilobni kuchaytirib yubordi. Xuddi ana shu burjuaziyani ham ko'proq qo'rqitar edi. Keng miqyosdagi dehqon chiqishlari va mamlakatda ishchilar plarining o'sishi chor hukumatiga qarshi burjuaziyani bir oppozitsion chiqishlarga undadi.

Podsho manifesti va «yetuk ijtimoiy tabaqalarga» hukumating «ishonchi»ni eʼlon qilgan Svyatopolk Mirskiyning haraitlari «yuqori tabaqalar»ning krizisidan darak beradi va keng avvalo, u mamlakatda inqilob kurashning oʻsganligini toqozo etadi. Shu boisdan chorizmning burjuaziyaga yon bosishi, uning ishchi va dehqonlarga qarshi ekspluatator sinflarning jipslashuvi yuzasidan koʻrgan choralari edi. Chorizmning mehnatkashlarga ayrim yon bosishlar toʻgʻrisidagi vaʼdasi esa, uning tobora oʻsib va kengayib borayotgan ommaviy inqilobon harakatni toʻxtatish maqsadida qilingan edi.

Rossiya proletaryati Uzoq Sharqdagi urushni oʻzi uchun butunlay yot boʻlgan ish deb qabul qildi.. Oʻsha paytda urushga qarshi norozilik bayon qilib chiqqan yagona partiya boʻlgan bolsheviklar partiyasi urushni boshlagan aybdorlarni fosh etdilar va Rossiyadagi xalq ommasini chorizm va burjuaziyaning harbiy siyosatiga qarshi kurashishga daʼvat etdi.

Chor Rossiyasi va Yaponiya tomonidan boshlangan urush ikki to-mon uchun ham imperialistik urush edi. Bunday urushdan mehnat-kashlar ommasi manfaatdor emas, ularning manfaatlari ekspluatatorlar sinfi manfaatlari bilan tubdan qarama-qarshilik uygʻonishni, albatta, kuchaytiradi, ishchilar sinfini oʻz dushmanlari bilan, albatta, yuzma-yuz keltirib qoʻyadi va samoderjaviyega qarshi keskin soʻnggi kurash uyushtirmoq' uchun sotsial-demokratiyadan benihoya katta ish olib borishni, kuch-larni zoʻr berib safarbar qilishni talab etadi. Rus-yapon urushiga keskin qarshi chiqar ekanlar, izchil internatsionalistik pozitsiyada turdilar. Yapon sotsialistlarining bu pozitsiyasi ularning rus sotsial demokratlariga «Xeymin simbun» gazetasida 1904 yil 13 martda bosilib chiqqan xatida ham oʻz ifodasini -topdi. Unda shunday deb yozgan edilar: «Oʻrtoqlar! Yaponiya va Rossiya hukumatlari faqat oʻzlarining imperialistik boyishga boʻlgan tashnaliklarini qondirish uchun urushni boshlab yubordilar. Biz sotsialistlar, hech qanday irqni bir-biridan ayirishni, hech qanday davlatlarni bir-biridan ayirishni, hech qanday millatlarni bir-biridan ayirishni tan olmaymiz. Biz oʻrtoqlarmiz, aka-ukalar va opa-singillarmiz, sizlar bilan bizlarning urushimiz uchun hech qanday asos yoʻq». Yapon sotsialistlari, shuningdek, oʻz xatlarida ular Rossiya

sotsial-demokratlarining sotsial kurash olib borishlarini qo'llab-quvvatlaydilar va maqsadlari bir ekanligi bilan rus o'rtoqlarni ishon Peterburg, Moskva, Baku, Tula va Rossiyaning boshqa shaharlari siyosiy va iqtisodiy stachka va namoyishlar a, doimo «Bitsin urush!», «Yo'qolsin, urushni talablarni qo'yar edilar.

1904 yilda Peterburgda, Moskvada, Tulada, Bokuda bo'lgan ishchining stachkalari urushga qarshi talablar bilan bir qo'shilib ketdi. Ayniqsa xalq inqilobyasi boshlangan pilda. urushga qarshi chiqishlarning keng to'liqini avj oldi¹.

Cho'zilib ketgan urush dehqonlarning ham noroziligiga olib keldi 1904—1905 yillar mobaynida gubernatorlar tomonidan ishlar ministriligiga har xil gubernalardan yuborilgan xabarda shu narsani ishonchli ravishda ko'rsatadiki, dehqonlarning Mushga qarshi kayfiyatlari keskin ortib bormoqda va qishloqlar tobora ko'proq urushga qarshi chiqa boshladilar. Jumladan, "gubernatori shunday deb yozgan edi: «Qozirgi vaqtda dehqonlar urushning nuqsonlari to'g'risida afsus qilib va urush nima uchun kelib chiqqanligini tushunmasdan hayratda qolib, Hammadan ham ko'proq urushni muhokama qilish bilan band bo'liv qoldi». Ammo dehqonlarni qiziqtirgan narsa faqat urushning sabablari va undagi mag'lubiyat sabablarigina emas edi. Dehqosh lar urushga qarshi keskin kurasha boshladilar. Bu fakti qap qilib, Ufa gubernatori shunday deb yozgan edi: «Dehqonlar harbiy xizmatga chaqirilishga salbiy qaramoqdalar». Dehqonchilik ministr Yermolov 1905 yil iyunida xalqning, va eng avvalo dehqonlarning urushga nisbatan munosabati to'g'risida podshoga yanada aniqroq ma'ruza yozdi. U yozgan edi: «Uzoq Sharqdagi urush orasida hech qanday ommaviylikka ega emas, xalq orasida hech qanday vatanparvarlik ko'tarinkiligi yo'q va bo'lmagan, faqat xalq o'zi uchun bu urushning og'ir oqibatlaridan tushkunlikka tushgan va shu bilan bir qatorda bizning urushdagi muvaffaqiyatsizligimiz to'g'risidagi xabarlar unga eziladigan darajada ta'sir ko'r| satmoqda».

¹ Lafasov, Jo'rayev. Jahon tarixi. T.: "Sharq". 2009. 127-bet.

Birinchi otishmadan oxirgi otishmagacha Xitoy territoriyasida olib borilgan rus-yapon urushi xitoy xalqiga juda katta azob uqubatlar olib keldi. Yapon harbiy qo'mondonligi xitoy xalqiga nisbatan ayniqsa nihoyatda shafqatsizlik qildilar. Ular xitoy aholisi bilan mutlaqo hisoblashmadilar, xitoylardan juda keng rekvizitsiyani amalga oshirdilar — oziq-ovqatlarni tortib oldilar, chorva mollarini haydab olib ketdilar. Yaponlarning harbiy hukumati xitoy qishloqlarini, shaharlarini yondirdilar, xitoylarning mol-mulklarini taladilar, ularning xo'jaliklarini vayron qildilar, xitoy aholisini yaponlar armiyasiga xizmat qilish ga majbur qildilar. Ularning urushga qarshi og'ishmay va mardonavor kurash olib borganliklarini xitoy xalqining ilg'or qatlamlari tan olmasliklari mumkin emas edi. Aholining taraqqiyparvar qismi yapon va rus imperialistlari tomonidan urush olib bo'rilishi uchun xitoy territoriyasini ixtiyoriy ravishda berishga rozi bo'lib qo'ya qolgan o'zlarining sotqin hukmdorlariga keskin qarshi chiqdilar.

1905 yil yanvarida Rossiyada inqilobning boshlanib ketishi Uzoq Sharqdagi urushning birdaniga tugallanishiga olib kelmadi. Bu shu bilan izohlanar ediki, chorizm o'zining iqtisodiy va harbiy imkoniyatlari doirasida hali birmuncha bardosh berib turishi mumkin edi, tazyiqi esa 1905 yil yanvar — iyunida ham o'zining cho'qqisiga chiqmagan edi. Chor hukumati urushni yozning oxirigacha olib borishga muyassar bo'ldi. Inqilobning yanada kuchayib ketishi aniq bo'lib qolganidan keyingina, chorizm va rus burjuaziyasi Uzoq Sharqda sulh tuzmoqchi bo'ldi.

Rus-yapon urushini to'xtatish yolg'iz chor Rossiyasining ishigina emas edi. Sulh tuzilishini Yaponiyaning hukmron sinflari ham Rossiyadagidan kam bo'lmagan darajada talab qildilar, chunki ular yirik g'alabalarga erishgan bo'lsalarda, ammo mamlakatning iqtisodiy va siyosiy ahvoli shunday darajada ediki, u urushni yanada davom ettira olmas va o'z g'alabalarini mustahkamlay oladigan holatda emas edi.

Rossiya bilan Yaponiya o'rtasida sulh tuzilishini deyarli barcha yirik imperialistik davlatlar ham qat'iy talab qildilar. Ayniqsa, o'zlarining g'arazli maqsadlari uchun AQSh bilan Fransiya sulh tuzilishini qattiq turib talab qildilar.

AQSh Yaponiya-ning Uzoq Sharqda haddan tashqari kuchayib ketishidan qo'rqdi, Fransiya esa sulh tuzilishi yo'li bilan Rossiyani Germaniyaning asosiy raqibi sifatida saqlab qolmoqchi bo'ldi. Rossiyada inqilobning kuchayib borishi barcha imperialistik davlatlarni qo'rqitib qo'ydi, va ular, sulh haqidagi yapon-rus muzokaralariga ta'sir ko'rsatib, inqilo harakatni bo'g'ib qo'ymoqchi bo'ldilar.

Sulh tuzishga qaratilgan dastlabki qadamlar 1904 yildayoq Fransiya bilan AQSh tomonidan qo'yilgan edi. Ammo ular ijobiy natijaga olib kelmadi. U paytda urushni to'xtatishga Yaponiya ham, Rossiya ham rozi bo'lmadilar.

Yaponiyaning qat'iy talabidan so'nggina 1905 yil iyunida AQSh prezidenti Teodor Ruzvelt vositachilik rolini bajarishga va ikki tomonni ham sulh to'g'risida muzokaralarga kirishish uchun ko'ndirishga muvaffaq bo'ldi. Rossiya bilan Yaponiya o'rtasida sulh to'g'risidagi muzokaralar dengiz yoqasidagi kichkina Portsmut shaharchasida (AQSh da) olib borildi. Bu muzokaralar 27 iyulda boshlandi va 1905 yil 23 avgustda (5 sentabrda) sulh tuzilishi bilan tugallandi. Rus delegatsiyasiga boshliq qilib Vitte, Yaponiya tomonida tashqi ishlar ministri Komura tayinlandi.

Amerika kapital magnatlari va AQSh hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlangan Yapon hukumati Portsmutdagi o'zining muxtor vakillari orqali rus delegatsiyasi oldiga bir qator talablarni qo'ydilar. U Qoreyar va Xitoy yerlariga bo'lgan Yaponiyaning territorial da'volarinigina o'z ichiga olib qolmasdan, balki rus yerlarini ham o'z ichiga olardi. Yapon militaristlari Rossiyadan Manchjuriyanigina emas, balki butun Saxalinni ham tortib olishga, juda katta kontributsiya to'lashga majbur etishga va sanoatchilari uchun rus tabiiy va baliq boyliklarini egalik qilishga doir juda katta yon bosishlarga majbur qilishga harakat qildilar.

Ammo Yanoniya ittifoqchilari Angliya va AQSh, chor Rossiyasi Yaponlar g'alabasiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsalarda, Yaponning o'z g'alabasidan keng foydalanib qolishini, Manchjuriya va Shimoliy Xitoyda yagona hukmronlik qilish davlatga aylanishini istamas edilar. Uz navbatida chor Rossiyasi Uzoq Sharqdagi o'z manfaatlarini juda qattiq turib himoya qildi va batamom kapitulyaiiyaga

borishni istamadi. Juda katta mag'lubiyatga qaramasdan, sulh tuzish arafasida son jihatdan rus armiyasi yapon armiyasidan ustin, yaponlarning moddiy resurslari esa urushni yanada davom ettirishga bardosh bera olmas edi. Ana shu holatni yaxshi bilgan uchun, yaponlarning davlat arboblari, o'zlari qo'ygan talab to'la-to'kis qondirilmasada, sulh tuzishga ahd qildilar. Shunga qaramasdan Yaponiya o'zining bosqinchilik programasi ancha qismini bajarishga muvaffaq bo'ldi. Portsmouth sulhi Uzoq Sharqda Yaponiyaning pozitsiyasini mustahkamladi va chor Rossiyasining bu rayondagi ahvolini ancha bo'shashtirdi. Jumladan, shartnomaning ikkinchi moddasida shunday deyilgan edi: «Rossiya imperatorlik hukumati, Yaponiyaning Qorayerda siyosiy, harbiy va iqtisodiy manfaatlarining ustunligini tan olib yapon imperatorligi hukumati Koreyada lozim ko'rgan Choralarini hurmat qilishga, uning rahbarlik, homiylik va nazoratga doir chora-tadbirlariga qarshi chiqmaslik va halaqit bermaslikka so'z beradi». So'ngra shu moddada aytiladiki, rus fuqorolari ham Koreyada, nisbatan imtiyoz berilgan mamlakatlar fuqorolari kabi, imtiyozlarga ega bo'ladilar, shuningdek, ikkala mamlakat ham rus-koreya chegarasida rus yoki koreya territoriyasi xanfsizligiga putur yetkazadigan hech qanday harbiy choralar ko'r-maydilar.

Manchjuriyaga nisbatan esa, shartnomada ta'kidlanadiki, Rossiya bilan Yaponiya, birinchidan, bu territoriyadan o'zlarining barma qo'shinlarini olib chiqib ketadilar ikkinchidan, Rossiya Manchjuriyada hech qanday yer mulkligiga va konsessiyalarga ega bo'lmaydi; uchinchidan, Manchjuriya Xitoyning ajralmas qismi deb e'lon qilinadi va to'rtinchidan, Rossiya bilan Yaponiya Xitoyning Manchuriyada qo'llanadigan umumiy choralariga va Manchjuriyada savdoni va sanoatni rivojlantirish maqsadida uni barcha mamlakatlarga berib qo'yishiga xalaqit bermaslikka so'z beradilar.

Shartnoma moddasida ko'rsatiladiki, Rossiya Xitoyning roziligi bilan Port-Artur bilan birgalikda Lyaodun yarim orolini Yaponiyaga ijaraga beradi.

Rossiya Chanchun va Port-Artur o'rtasidagi temir yo'lni va bu temir yo'lga qarashli bo'lgan barcha har xil mol-mulklarni Yaponiyaga hech qanday badalsis berishi lozim edi.

Shartnomada ta'kidlanadiki, Rossiya bilan Yaponiya Manchjuriyada o'zlariga qarashli bo'lgan temir yo'llarni, hech qachon strategiya maqsadlarida emas, balki kommersiya va sanoat maqsadlaridagina ekspluatatsiya qilish majburiyatini oladilar. Shu bilan birgalikda bu moddaning qo'shimchasida aytiladiki, Rossiya va Yaponiya Manchjuriyadagi temir yo'llarda har 1 km yo'lda 15 sol, dat hisobidan harbiy soqchilar saqlash huquqini saqlab qoladilar.

Shartnomaga ko'ra Rossiya Saxalin orolining janubiy qismini Yaponiyaga uning foydalanishi uchun berishga rozilik bildiradi. Shartnomada belgilab qo'yiladiki, Yaponiyaga beriladigan barcha territoriyalarda rus fuqarolarining mulk egaligi huquqi saqlanib qoladi.

Shartnomaga ko'ra Rossiya rus territorial suvlarida yapon fuqoralarining baliq ovlash huquqini berish to'g'risida Yaponiya bilan kelishib olish majburiyatini oldi.

Rossiya bilan Yaponiya harbiy asirlarni saqlash uchun ketgan xarajatlar o'rtasidagi farqlarni belgilab olishgandan keyin o'zaro bir-birlariga bu xarajatlarni to'lash majburiyatini oldilar.

Shunday qilib, Portsmouth sulhi Yaponiyaga g'alabalarni mustahkamlab beribgina qolmay, chor Rossiyasining ham Uzoq Sharqdagi bir qator ustunliklarini uning o'zida qoldirdi.

Shu bilan birga shartnomaga ko'ra Rossiya anchagina katta territorial va iqtisodiy yo'qotishlarga duchor bo'lganligiga qaramay, juda qimmatga tushgan sulh chorizmning inqilobga qarshi kurashida muhim faktorlardan biri bo'ldi.

Biroq Portsmouth sulhi Yaponiya va chor Rossiyasi o'rtasidagi ziddiyatlarni faqat vaqtinchalik hal qildi, xolos. Yapon imperialistlari bu sulhdan foydalanib Rossiyani va biryo'la o'zining boshqa raqiblarini Manchjuriyadan tamomila siqib chiqarishga intilib keng ekspansionistik siyosat yurgizdilar.

1904—1905 yillardagi urush natijasida vujudga kelgan odam sonidagi og'ir yo'qotishlar va mushkul iqtisodiy ahvoldagina yapon imperialistlarini o'zlari o'ylagan keng planlarni amalga oshirishdan tiyib turar edi G'alaba Yaponiyaga juda qimmatga tushdi. U urush xarajatlari uchun 2 milliarddan oshiq iyen sarfladi.

Yaponiyaning davlat qarzlarini deyarli 3 mlrd. iyyendan oshib ketdi va u protsentlarning o'zidan har yili 100 mln. iyyen to'lashi kerak edi.

Yaponiya urushda o'ldirilganlar va kasallikdan nobud bo'lganlar bo'lib 135 ming kishidan oshiq yo'qotdi. Yaralangan va kasallikka duchor bo'lganlar 500 ming kishidan ortiq edi.

Urush chor Rossiyasiga bundan ham qimmatga tushdi. Rossiya byudjet bo'yicha urush harajatlariga sarflangan 2,5 mlrd. so'mdan tashqari Portsmouth sulhiga ko'ra Yaponiyaga berilgan temir yo'llar va boshqa inshootlar tufayli, shuningdek, harbiy va savdo kemalarini cho'ktirib yuborilishi natijasida 500 mln. so'mdan yo'qotdi. Rossiya urushda o'lganlar, yaradorlar va kasallar 500 ming kishini yo'qotdi.

Xulosa

Prizidentimiz Islom Karimovning qator asarlarida va kiyingi nutq va maruzalarida ilgari surilgan va xalqimiz tomonidan shiddat bilan amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqimiz oldida turgan ulug' va mushtarak vazifalar: ozod va obod vatan, erkin va farovon turmush barpo etish; dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin egallash; adolatli, huquqiy demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo etish kabi ulkan vazifalarni bajarishimizda O'zbekiston Respublikasining qo'shni davlatlar bilan olib borayotgan ijtimoiy siyosiy, madaniy sohalarda olib borayotgan har tomonlama munosabatlarimiz ham muhim xalqaro ahamiyat kasb etadi. «Ayniqsa bugungi kunda hamdo'stlik davlatlari o'rtasida eng qudratli, salohiyat va ulkan imkoniyatga ega bo'lish Rossiya federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatish O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida bo'ldi. Shuning uchun I. A. Karimov «Rossiya federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatish O'zbekiston uchun juda muhimdir va biz bu maqsadimizga erishish uchun bor kuchimiz va imkoniyatlarimizni ayamaymiz»¹, - degan edi.

1992-yil 30-mayda O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Shu munosabat bilan prezidentimiz I. A. Karimov mulohaza yuritib, jumladan shunday dedi: «Eng quvonchlin jihati shuki, bu muhim voqiani ham rus, ham o'zbek xalqi katta xursadchilik va mamnuniyat bilan kutib oldi.

O'zbekiston-Rossiya o'rtasidagi teng hamkorlik, o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar iqtisodiyotning kiyingi yillarida ham davom etadi» – dedi.

O'zbekiston tashqi siyosatida Rossiya bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi. Mamlakatlarimiz o'rtasida 2004-yilda strategik sheriklik 2005-yilda ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar imzolanib, o'zaro hamkorlikning oliy

¹ N. Jo'rayev va boshqalar. O'zbekistonning yangi tarixi uchinchi kitob. «Sharq» nashriyoti. T.: 2000. 529-bet.

bosqichga ko'tarish uchun huquqiy asos yaratiladi. Davlatimiz o'rtasidagi aloqalar o'zaro ishonch va manfaatdorlik asosida rivojlanmoqda. O'zbekiston va Rossiyaning siyosiy va iqtisodiy munosabatlari o'zaro ishonch va manfaatdorlik asosida rivojlangan. Xalqaro maydonda ikki davlat bir-birini qo'llab, quvvatlab keladi. Bu muayyan muammo va masalalarga qarashlar o'xshash va yaqinligidan dalolatdir.

2008-yil 6-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi va Rossiya federatsiyasi hukumatlar o'rtasidagi 2008-2012 yillarda munosabatini tartibga solib turuvchi asosiy hujjatlar jumlasidandir. 1991-yildan to bugunga qadar O'zbekiston Respublikasi va Rossiya federatsiyasi o'rtasida jami bo'lib 236 ta xalqaro shartnoma imzolangan".

Yurtboshimiz I. A. Karimov takidlagandek, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma ikki tomonlama hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochib berishga xizmat qiluvchi xujjatdir va u mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning zarur kafolatlarini yaratadi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent, "O'zbekiston", 1998.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q. 5-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1997. 145-150 betlar.
5. Karimov I.A. Adolat va qudrat timsoli. 5-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1997. 179-180 betlar.
6. Karimov I.A. Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz. 5-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1997. 181-190 betlar.
7. Karimov I.A. Iqtisodiyot va ma'naviyat ajralmasdir. 6-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1998. 314-317 betlar.
8. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1999. 84-102 betlar.
9. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. 7-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1999. 132-154 betlar.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-jamiyat taraqqiyotining asosi. 7-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 1999. 223-235 betlar.
11. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, "Sharq", 1999.
12. Karimov I.A. Xushyorlikka da'vat. 8-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 2000. 18-31 betlar.
13. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan Hamkorlik yo'li. Toshkent, "O'zbekiston", 2003. 214-247 betlar.
14. Karimov I.A. Xushyor va ogoh bo'lib yashash xayotimiz qoidasiga aylansin. 12-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 2004. 383-394 betlar.
15. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb Hisoblashar edi. 13-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 2005. 133-154 betlar.

16. Karimov I.A. Inson xotirasi-muqaddas, inson qadri - ulug`. 14-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2006. 213-221 betlar.
17. Karimov I.A. O'zbek xalqining Islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos Hissasining e'tirofi. 15-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 2007. 211-223 betlar.
18. Jahon tarixi. Toshkent. 2004 yil
19. Yangi tarix. Toshkent. 2008 yil
20. N. Jo'rayev va boshqalar. O'zbekistonning yangi tarixi uchinchi kitob. "Sharq" nashriyoti. T.: 2000. 529-bet.
21. "Xalq so'zi" gazetasi 2010 yil 13-noyabr №220
22. "Xalq so'zi" gazetasi 2009 yil 24-yanvar
23. "Xalq so'zi" gazetasi 2009 yil 21 yanvar
24. Lafasov, Jo'rayev. Jahon tarixi. T.: "Sharq". 2009.